

YANGI O'ZBEKISTON

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

№ 114 (903), 2023-yil 10-iyun, shanba



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news



O'ZBEKISTON ITALIYA ISHBILARMONLARI UCHUN ISTIQBOLLI MARKAZIY OSIYO MINTAQASI BILAN ISHLASH IMKONIYATLARINI OCHADIGAN STRATEGIK HAMKOR

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Italiya Respublikasi Prezidenti Serjo Mattarellaning taklifiga binoan 7-9-iyun kunlari rasmiy tashrif bilan ushbu mamlakatda bo'ldi.



INCONTRO CON LA COMUNITA' IMPRENDITORIALE ITALIANA
Milano, 9 giugno 2023

ITALIYA ISHBILARMON DOIRALARI
VAKILLARI BILAN UCHRASHUV
Milan, 2023-yil, 9-iyun

Davlatimiz rahbari Italiyaga rasmiy tashrifi doirasida Milan shahrida Lombardiya gubernatori Attilio Fontana bilan uchrashuv o'tkazdi.

Italiya shimolida joylashgan Lombardiya mamlakatning aholi soni va maydoni bo'yicha eng yirik hamda iqtisodiy jihatdan eng rivojlangan hududlaridan biri hisoblanadi. Viloyat respublika yalpi ichki mahsulotining 22 foizini ta'minlaydi va bu ko'rsatkich bo'yicha Yevropa Ittifoqida beshinchi o'rinni egallaydi.

Uchrashuv avvalida davlatimiz rahbari Attilio Fontanani gubernator etib qayta saylangani bilan tabriklaydi va ushbu lavozimdagi faoliyatiga muvaffaqiyatlar tiladi.

Kuni kecha Italiya Prezidenti Serjo Mattarella va Bosh vazir Jorja Meloni bilan o'tgan muzokaralar samarali bo'lgani mamnuviyat bilan qayd etilib, ular davomida hududlararo aloqalarni rivojlantirish qo'llab-quvvatlangani ta'kidlandi.

Uchrashuvda, eng avvalo, savdo-iqtisodiy sohadagi o'zaro manfaatli hamkorlikning amaliy jihatlari muhokama qilindi.

O'tgan yilda O'zbekiston hududlarining Lombardiya bilan tovar ayirboshlash hajmi 83 foizga oshdi. Aprel oyida Milan va Toshkent o'rtasidagi aviaqatnovlar qayta tiklandi.

Hududning Pietro Fiorentini, Terranova, Danieli, Fin. Opera kabi yetakchi kompaniyalari bilan mustahkam sheriklik aloqalari yo'lga qo'yilgan.

O'zbekiston Prezidenti qo'shma savdo va investitsiya loyihalari portfelini kengaytirish, Italiyaning ilg'or texnologiya va bilimlarini O'zbekiston iqtisodiyoti

tarmoqlariga yanada keng jalb qilish muhimligini ta'kidladi.

Lombardiya bilan keng ko'lami hamkorlik dasturini tez fursatda tayyorlash, Samarqandda qo'shma investitsiya forumini o'tkazish zarurligi qayd etildi.

Sanoat kooperatsiyasini rivojlantirish, tadbirkorlik tashabbuslarini ilgari surish uchun qulay sharoitlar yaratish, tibbiyotda davlat-xususiy sheriklik loyihalarini amalga oshirish, innovatsiyalarni rivojlantirish, madaniy-gumanitar aloqalarni kengaytirish, shu jumladan, Madaniyat kunlarini o'tkazish masalalariga alohida e'tibor qaratildi.

Gubernator Lombardiya ishbilarmon doiralarning O'zbekistondagi loyiha va tashabbuslari har tomonlama qo'llab-quvvatlanayotgani uchun Prezidentimizga samimiy minnatdorlik bildirdi. Mamlakatimiz hududlari bilan keng ko'lami va o'zaro manfaatli sheriklikka ko'maklashishga tayyorligini ta'kidladi.

Uchrashuv yakunida davlatimiz rahbari Attilio Fontanaga 2026-yilda Lombardiya bo'lib o'tadigan qishki Olimpiya o'yinlariga tayyorgarlik ko'rishda muvaffaqiyatlar tiladi.

Italiya Respublikasiga rasmiy tashrifning ishbilarmonlik tadbirlari doirasida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Milan shahrida ushbu mamlakatning investorlari va yirik biznes vakillari bilan uchrashuv o'tkazdi.

Uchrashuvda Italiya tomonidan Lombardiya viloyati gubernatori Attilio Fontana, "Italiya — O'zbekiston" savdo palatasi prezidenti Jorjo Veronezi, shuningdek, Eni, Enel, Pietro Fiorentini,

Saipem, Energy System, Imagro Group, HT Holding, Danieli, SACE, Ferrolli Group, Arsenale Group, Pirelli kabi yetakchi kompaniya va korporatsiyalar, uyushma va moliyaviy institutlarning 25 nafardan ziyod rahbarlari ishtirok etdi.

— Jahon sivilizatsiyasining qadimiy beshiklaridan biri, boy madaniy meros va yuqori texnologiyalar markazi, rassom va shoirlarning bir necha avlodi uchun ilhom manbai bo'lgan betakror yurtimizga bu mening birinchi tashrifim, — dedi Prezident tadbir avvalida. — Uchrashuvimiz aynan Milanda — faol ishbilarmonlik jarayonlari qizg'in kechayotgan, innovatsiya va texnologiyalar kashf etilayotgan, sanoatning yangi tarmoqlari rivojlanayotgan zamonaviy iqtisodiy markazda o'tayotgani ramziy ma'noga ega.

Keyingi yillarda O'zbekiston bilan Italiya o'rtasidagi iqtisodiy hamkorlik jadal rivojlanib borayotgani mamnuviyat bilan qayd etildi. Mamlakatimizda Italiya sarmoyasi ishtirokidagi zamonaviy korxonalar soni ikki karra ko'paydi. O'zaro savdo hajmi izchil oshib bormoqda. Elektrotexnika, metallurgiya sohalarida hamda infratuzilmani rivojlantirish bo'yicha qator qo'shma loyihalar muvaffaqiyatli amalga oshirilmoqda.

Davlatimiz rahbari kuni kecha Italiya Prezidenti Serjo Mattarella va Bosh vaziri Jorja Meloni bilan o'tkazilgan muzokaralar sermahsul va konstruktiv bo'lganini qayd etdi.

— Mohiyatan, biz mamlakatlarimiz munosabatlarini strategik sheriklik darajasiga ko'tarib, ularning tarixida yangi bosqichni boshladik. Savdo-iqtisodiy hamkorlikni kengaytirishga,

biznes uchun qulay sharoitlar yaratishga, qo'shma loyihalarni moliyalashtirishning moslashuvchan mexanizmlarini joriy etishga, tashabbuslarimizni qo'llab-quvvatlashga kelishib oldik. Shuningdek, sanoat kooperatsiyasini rivojlantirish uchun yo'nalishlarni belgilab oldik, — dedi Shavkat Mirziyoyev.

Erishilgan barcha kelishuvlar ijrosiga aynan Italiya biznes vakillari katta hissa qo'shishga qodir. Qolaversa, tashrifdan avval ikki mamlakat ishbilarmon doiralarning qariyb 300 nafar vakili ishtirokida o'tkazilgan qo'shma biznes-forum Italiya sarmoyadorlarining O'zbekistonga qiziqishini tasdiqladi.

Ushbu tadbir yakunida umumiy qiymati 9 milliard yevrodan ziyod bo'lgan bir qator yangi investitsiya kelishuvlari va savdo bitimlari imzolandi. Ular energetika, gaz-kimyoviy va neft-gaz tarmog'i, metallurgiya, kimyo, to'qimachilik sanoati va qishloq xo'jaligida katta kooperatsiya loyihalarini amalga oshirishni nazarda tutadi.

Uchrashuv davomida davlatimiz rahbari jahon iqtisodiyotidagi jiddiy tebranishlar va global yetkazib berish zanjirlari buzilishi sharoitida ishonch va hurmat tamoyillariga asoslangan konstruktiv, ochiq muloqot muhimligini qayd etib, O'zbekiston Italiya biznesiga yurtimizda faoliyat yuritishi uchun keng qo'llab-quvvatlash choralarini va samarali maydon taqdim etishga tayyorligini bildirdi.

Prezidentimiz O'zbekistonda amalga oshirilayotgan islohot va yangilanishlarga alohida o'xtaldi. Erkin bozor mexanizmlarini joriy etish, sog'lom raqobat va xususiy mulk daxlsizligini

ta'minlash, tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash, samarali davlat boshqaruvi tizimini joriy etish borasida qilinayotgan izchil ishlar hamda biznes yuritish uchun maksimal qulayliklar yaratishga qaratilgan boshqa ijobiy o'zgarishlar qayd etildi.

— Bugun bizda biznesingiz rivoji va ravnaqi uchun barcha sharoitlar yaratilgan. Barqarorlik, ishonchli kafolatlar, qulay investitsiya muhiti ta'minlangan. Har biringizni Yangi O'zbekiston — haqiqatan cheksiz imkoniyatlarga ega betakror mamlakat ekanligiga ishonch hosil qilish uchun yurtimizga kelishni taklif qilaman, — dedi Prezident Shavkat Mirziyoyev.

Qayd etilganidek, O'zbekistonning boy tabiiy resurslari va malakali kadrlarini Italiyaning texnologik va sanoat salohiyati bilan birlashtirishdan hosil bo'ladigan sinergiya qo'shilgan qiymatli mahsulotlarni birgalikda ishlab chiqarish va ularni uchinchi mamlakatlar bozoriga eksport qilish imkonini beradi.

Shu ma'noda, energetika, oziq-ovqat va to'qimachilik sanoati, qishloq xo'jaligi, kimyo va avtomobilsozlik, elektrotexnika va ko'plab boshqa sohalar hamkorlik uchun istiqbolli ekanini ta'kidlandi.

Sheriklikni kengaytirish bo'yicha rejalar yuzasidan atroficha fikr almashildi. Italiya ishbilarmon doiralari vakillari mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar samaradorligini yuqori baholab, ular uzoq muddatli hamkorlikni rivojlantirishga xizmat qilayotganini ta'kidladilar.

O'zbekiston Italiya kompaniyalari uchun istiqbolli Markaziy Osiyo mintaqasi bilan ishlash imkoniyatlarini ochadigan strategik hamkor ekanini qayd etildi.

Italiya tadbirkor va sarmoyadorlari O'zbekistonda o'zaro manfaatli qo'shma loyihalarni amalga oshirish, bunda yuqori texnologiyalar va innovatsion yechimlarni joriy qilish bo'yicha aniq taklif va rejalarini bayon qildilar.

Misol uchun, Lombardiya viloyati bilan hududlararo hamkorlik dasturlarini kengaytirish, O'zbekistonda gaz taqsimoti tizimini va Toshkent shahrida elektr taqsimot tarmoqlarini modernizatsiya qilish, Toshkent issiqlik elektr stansiyasini texnologik jihatdan qayta jihozlash, bir qator zavodlar qurish, shu jumladan, chiqindilarni yoqish orqali elektr energiyasi ishlab chiqarish, kaliy xlorini tozalash, kaliy gidroksidi, qurilish materiallari, qishloq xo'jaligi texnikasi ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish, za'faron plantatsiyalarini kengaytirish, "O'zmetkombinat" AJ ishlab chiqarish quvvatini oshirish, Turin politexnika universiteti bilan birgalikda Italiya texnologiya va innovatsiyalari markazini tashkil etish va boshqa loyihalar to'g'risida so'z yuritildi.

Bundan tashqari, sanoat uchun kadrlar tayyorlash yuzasidan kelishuvlarga erishildi.

O'zbekiston yetakchisi uchrashuvda aytilgan har bir tashabbusni kompleks "yo'l xaritasiga" kiritishga ko'rsatma berdi. O'zbekiston vazirlik va idoralari rahbarlariga italiyalik hamkorlarga

mamlakatimizdagi joriy va yangi loyihalarini amalga oshirishda har tomonlama ko'maklashish topshirildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Italiyaga rasmiy tashrifining ishbilarmonlik dasturi doirasida shu kunlarda Milan shahrida o'tayotgan "ITMA 2023" to'qimachilik mashinasozligi xalqaro ko'rgazmasi bilan tanishdi.

Davlatimiz rahbariga Lombardiya viloyati gubernatori Attilio Fontana va ko'rgazma tashkilotchisi — "Sematex" agentligi rahbari Ernesto Maurer hamrohlik qildi.

"ITMA 2023" — har to'rt yilda bir marta o'tkaziladigan to'qimachilik va tikuvchilik texnologiyalariga bag'ishlangan dunyodagi eng yirik ko'rgazma. Oxirgi ko'rgazma 2019-yilda Barselona shahrida o'tdi. Joriy yilda 20 gektar maydonni egallagan ko'rgazmada 47 mamlakatdan 1 700 ishtirokchi hamda turli davlatlardan 100 ming nafarga yaqin mehmon ishtirok etmoqda.

Davlatimiz rahbari yigirish va to'qish uskunalarini ishlab chiqarishda dunyoda yetakchi bo'lgan "ITEMA" (Italiya), "Staubli Group" (Shveysariya), "Picanol", "Vandewiele" (Belgiya) va boshqa kompaniyalarning standarlari ko'zdan kechirdi.

Tashrif chog'ida Shavkat Mirziyoyev kompaniyalar rahbarlari bilan muloqot qildi, yangi texnologik yechimlarning taqdimotlari bilan tanishdi.

O'zbekistonda to'qimachilikni rivojlantirish bo'yicha qo'shma dasturlarni yo'lga qo'yish, yangi kooperatsiya loyihalarini amalga oshirish, to'quv uskunalarini va ularning ehtiyot qismlarini mahalliy lashtirish, kompaniyalarning vakolatxonalarini va dastgohlarga xizmat ko'rsatish markazlarini ochish, texnologiyalarni tayyorlash dasturlari ishlab chiqish, fan va zamonaviy texnologiyalar borasida hamkorlik o'rnatish va boshqa tashabbuslar muhokama qilindi.

Prezidentimiz robototexnika va sun'iy intellektdan foydalangan holda yangi, talab yuqori bo'lgan "super-materiallar" yaratish maqsadida yurtimizda matoga ishlov berish uchun eng zamonaviy uskunalar va innovatsion yechimlarni joriy qilish istiqbolli ekanini qayd etdi.

Yangi texnologiyalar yuqori qo'shilgan qiymatga ega xaridorligi mahsulotlarni ishlab chiqarish, to'qimachilik tarmog'ining eksport salohiyatini oshirishga, uskunalarini ishlab chiqarish bo'yicha loyihalar esa yangi ish o'rinlarini yaratishga xizmat qiladi.

Tanishuv yakunida mutasaddi rahbarlarga O'zbekistonda uskunalarini mahalliy lashtirish, ishlab chiqarish quvvatlarini relokatsiya qilish va o'quv dasturlarini amalga oshirish imkoniyatlarini o'rganish topshirildi.

Shu bilan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Italiyaga rasmiy tashrifi yakunlandi.

O'ZA

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Matbuot xizmati surati.



TAHLIL VA TAQQOS

MILLIY SANOAT MARKETINGI

ERKIN BOZORGA MOSLASHISH, RAQOBATBARDOSHLIKNI OSHIRISHGA XIZMAT QILADI

Bozordagi faoliyat va harakat — bu marketing so'zining asosiy lug'aviy ma'nosi. Bu tushuncha bozor sohasining har qanday jihati bilan bog'liq: iqtisodiy munosabatlarni faollashtirish, birinchi navbatda, talab va taklifi hisobga olish, ro'y beradigan o'zgarishlarga tez moslashish, raqobatbardosh mahsulotlar yaratish, konyunkturani o'rganish, ta'sirchan reklamani rivojlantirish kabi ko'plab masalalarni hal etishni qamrab oladi.

Davomi 4-betda

2023
9-IYUL

O'ZBEKISTON
RESPUBLIKASI
PREZIDENTI SAYLOVI

Gazetamizning bugungi sonida O'zbekiston Ekologik partiyasidan O'zbekiston Respublikasi Prezidentligiga nomzod Abdushukur Hamzayevning saylovoldi tashviqoti bo'yicha maqola chop etilmoqda.

Mazkur maqola O'zbekiston Respublikasi Prezidentligiga nomzodlarga saylovoldi tashviqoti uchun ajratilgan bepul nashr maydoni doirasida e'lon qilinmoqda.

3-betga qarang.



NUQTAYI NAZAR

HAR BIR ISH, HAR BIR QONUN

avvalo, xalqimiz va Vatanimiz manfaatini nazarda tutadi

Mamlakatimizda inson sha'ni va qadr-qimmatini oliy qadriyat sifatida ulug'lanib, bunyodkor xalqimiz yangi O'zbekiston havosidan nafas olgan holda kelajakka ulug' maqsad va yuksak orzu-niyatlar bilan shahdam odim tashlamoqda. Bunday tarixiy o'zgarishlar zamirida yurtimizda "inson — jamiyat — davlat" tamoyili asosidagi islohotlar, erkin va farovon taraqqiyot yo'lidagi izchil tadbirlar, el-yurt tashvishidagi mashaqqatli mehnat yotibdi.

Davomi 5-betda

XALQARO LOYIHALAR



Sherzod UMAROV,
BMT oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkiloti (FAO) ning O'zbekistondagi vakili o'rinbosari

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Italiyaga tashrifining birinchi kunida FAO ofisiga tashrif buyurganini kuzatish asnosida o'zaro hamkorlikning rivojlanish tendensiyasi va bugungi holati haqidagi tahlillar yana bir karra xayolimdand o'tdi.

Bu hamkorlik O'zbekiston 2011-yil 2-oktabrda Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkiloti a'zosiga aylanganidan boshlangan. 2014-yilda Toshkentda

HAMKORLIK PORTFELI 3 BAROBAR OSHDI

BMT Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkiloti (FAO)
O'zbekistonning uzoq yillik xalqaro hamkorlaridan biri. Ushbu tashkilot mamlakatda qator yo'nalishlar, jumladan, qishloq xo'jaligi sohasida innovatsiyalarga asoslangan loyihalarni amalga oshirib kelmoqda. Oxirgi bir necha yilda hamkorlik portfeli uch barobar kengaygani o'zaro ishonch va global masalalardan biri bo'lgan oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashdagi umumiy manfaatlarining yanada birlashib borayotganidan dalolatdir.

FAO vakolatxonasi ish boshladi va bugungi kunda muvaffaqiyatli faoliyat yuritib kelyapti. Xalqaro tashkilot bilan hamkorlik bo'yicha Qishloq xo'jaligi vazirligi vakolatli organ etib belgilangan ham uning maqsad va vazifalari, asosiy yo'nalishi shu tarmoqni rivojlantirishga ko'maklashishdan iboratligi bilan bog'liq. Ana shu maqsadda o'tgan yillar davomida mamlakatda FAO bilan hamkorlikda 15,3 million dollarlik 33 loyiha amalga oshirildi. Ular orasida Podshoota daryosi transchegaraviy basseyni suv kam hududida suvni tejash texnologiyalarini joriy etishni jadallashtirish, O'zbekistonda organik qishloq xo'jaligini rivojlantirish hamda tegishli qishloq xo'jaligi amaliyoti (GAP)ni ilgariyatish uchun institutsional

salohiyatni shakllantirish, O'rmon yerlari va o'tin resurslarini kompleks baholash singari yirik loyihalar ko'p.

So'nggi bir necha yilda hamkorlik ko'lami ancha kengayib borayotgani ko'zga tashlanadi. Bu, bir tomondan, O'zbekistonning dunyo davlatlari uchun ochilib, xalqaro hamkorliklar ko'lamin kengaytirishga faol kirishgani, ikkinchi tomondan, mamlakatning global masalalarda o'z pozitsiyasi, jahon maydonida o'z takliflarini ilgari sura boshlagani bilan bog'liq.

O'zaro hamkorlikdagi loyihalar soni va qiymati 2018-yildan buyon muntazam o'sib borgan ham buning isboti. Eng ko'p o'sish 2020- va 2021-yillar — O'zbekistonning ilk bor FAO Mintaqaviy konferensiyasida raislik qilgan davrlarga to'g'ri keladi. Bu vaqtda umumiy qiymati 32 million dollarga teng 26 ta mintaqaviy va milliy grant loyihalari yo'lga qo'yildi. Mintaqaviy miqyosda amalga oshirilayotgan MHD loyihalarining asosiy donorlari Global ekologik fond, Yashil iqlim fondi, Jahon banki, Turkiya, XXR, Koreya Respublikasi, Yaponiya hukumatlari va boshqalar bo'ldi.

Bugungi kundagi loyihalar ham salmoq jihatidan avvalgi yillardagidan aslo kam emas. Xususan, hozirgi kunda O'zbekistonda FAO tomonidan jami 55,14 million dollarlik 33 loyiha amalga oshirilyapti. Ularning 12 tasi milliy loyiha

bo'lsa, 21 tasi mintaqaviy ahamiyatdagi harakatlardir. Milliy loyihalarda ko'proq yerdan foydalanish, o'simlikshunoslik, tuproq resurslarini boshqarish, iqlim o'zgarishi kabi yo'nalishlar e'tiborga olingan bo'lib, mintaqaviy loyihalar tabiat resurslaridan foydalanish, zararkunandalarga qarshi kurashish, chorvachilik hamda qishloq xo'jaligini rivojlantirishning keng ko'lami jihatlarini qamrab oladi.

Birgina CACILM-2 harakatini oladigan bo'lsak, mazkur mintaqaviy loyiha qurg'oqchil va sho'rlangan qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish landshaftlarida yerdan foydalanishni yaxshilash, iqlim o'zgarishi oqibatlarini yumshatish hamda tabiiy resurslarni kompleks boshqarish bo'yicha amaliyotlar ko'lamin kengaytirishga qaratilgan bilan ahamiyatli ekanini ko'rinadi. Bu bo'yicha mutaxassislar tavsiyalar ishlab chiqib, hududlarda innovatsion yondashuvlar va texnologiyalarni qo'llamoqda. "G'uzor" qorako'lchilik xo'jaligi MChJ hududida atrofi o'ralgan yaylov o'simliklari urug'lik maydoni bunga misol. 30 gektar maydonga yaylov o'simliklari urug'lari belbog' usulida ekilib, keyinchalik xo'jalik ehtiyojlari va sotish uchun urug'lik yetishtirish rejalashtirilgan. Loyiha doirasida Buxoro va Qamashi tumanlari qishloq aholisini qo'llab-quvvatlash borasida ham qator ishlar amalga oshirilyapti. Xususan, o'tgan yili fermerlar va aholi daromadlarini oshirish maqsadida qishloq xo'jaligi texnikalari, issiqxonalar, qurg'oqchilik va sho'rqa chidamli ekinlar urug'lari beg'araz yetkazib berildi.

FAO hamda O'zbekiston Qishloq xo'jaligi vazirligi hamkorligidagi "Kelajak avlod uchun aqlli dehqonchilik" loyihasi esa issiqxonachilikni rivojlantirishga

qaratilgan. Ya'ni qishloq joylardagi kichik issiqxonalar zamonaviy usulda modernizatsiya qilib, ilg'or texnologiyalarni qo'llash hisobiga mahsulot yetishtirishda yuqori sifat va hosildorlikka erishish maqsad qilingan. Loyiha O'zbekistonda 2020-2024-yillar davomida amalga oshiriladi. Jarayonda asosan kichik hajmdagi issiqxonalar tanlandi. Ilk bosqichi 2021-yilda Andijon, Namangan va Farg'ona viloyatlarida boshlandi. O'shanda 20 xonadon tanlab olinib, ularning issiqxonalar loyiha grant mablag'lari hisobidan oxirgi texnologiyalar asosida qayta ta'mirlandi. Barchasiga nasoslar, filtrlar, suv idishlari va shlanglardan iborat zamonaviy tomchilatib sug'orish tizimlari o'rnatildi. Xullas, ishtirokchilarning zamonaviy texnologiyalar asosida bir necha barobar yuqori hosil olishiga erishildi.

Umuman, FAO O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqishdan tortib uni amalga oshirishni ham qo'llab-quvvatlab kelmoqda. Ikki tomon o'rtasida umumiy qiymati 17 million dollarga teng 2021-2025-yillarga mo'ljallangan yangi Mamlakat hadli dasturi (MHD) ham imzolangan. Dastur ikkita muhim strategik yo'nalish — salomatlik, farovonlik va barqaror gullab-yashnashga olib boruvchi inson kapitalining inkluziv taraqqiyoti hamda iqlim o'zgarishini hisobga olgan holda barqaror taraqqiyotga qaratilgan harakatlarni belgilab beradi.

Bundan tashqari, qiymati 41,3 million dollarga teng 4 ta loyiha ishlab chiqilmoqda. Ular O'zbekiston Respublikasida biologik xilma-xillikni saqlab qolish, xavfli kimyoviy moddalar bilan oqilona muomala qilish sohasidagi texnik yordam, FAO Texnik

ko'mak dasturi bo'yicha loyihalar, shuningdek, Pandemiya fondi uchun "Markaziy Osiyoda "Yagona salomatlik" yondashuvlari yordamida pandemiya tayyorlik va javob choralarini mintaqaviy loyiha"si kabi yo'nalishlarni qamrab oladi.

Hozirda FAOning texnik ko'magida iqlim o'zgarishiga qarshi kurashish, uning qishloq xo'jaligiga ta'sirini yumshatish va moslashtirish uchun qiymati 6,5 million dollarga teng Global ekologik fondning grantini jalb qilish ustida ham ish olib borilyapti. Mamlakat bilan birgalikda doimiy ravishda xalqaro tadbirlar, konferensiyalar o'tkazilib, global masalalar ko'tarilgiga qolmay, xorijlik mutaxassislar bilan ularning yechimlari izlanmoqda.

Joriy yil sentabr oyida Samarqandda FAO shafeligida oziq-ovqat xavfsizligiga bag'ishlangan yuqori darajadagi xalqaro konferensiya o'tkazilishi rejalashtirilgan. Unda oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash, qishloq xo'jaligi mahsulotlari uchun import inflyatsiya darajasini pasaytirish choralarini ko'rish va sohadagi boshqa global masalalar yana bir karra o'rtaga tashlanadi. Yirik tadbir ushbu masalalar bo'yicha xalqaro miqyosda, o'zaro hamkorlikda aniq chora-tadbirlar belgilanishiga yo'l ochadi.

FAOning O'zbekiston bilan hamkorligi esa bundan keyin ham faol davom etadi. Zero, hamkorlikdagi loyihalar qishloq xo'jaligi sohasida mahsulot yetishtirish va qayta ishlash, qo'shimcha qiymatni yaratish, yuqori hosildorlik, aholi bandligini ta'minlash hajmining oshishiga xizmat qilmoqda.

O'ZARO HAMKORLIKDAGI LOYIHALAR SONI VA QIYMATI 2018-YILDAN BUYON MUNTAZAM O'SIB BORGANI HAM BUNING ISBOTI. ENG KO'P O'SISH 2020-VA 2021-YILLAR — O'ZBEKISTONNING ILK BOR FAO MINTAQAVIY KONFERENSIYASIDA RAISLIK QILGAN DAVRLARGA TO'G'RI KELADI. BU VAQTDAM UMUMIY QIYMATI 32 MILLION DOLLARGA TENG 26 TA MINTAQAVIY VA MILLIY GRANT LOYIHALARI YO'LGA QO'YILDI. MINTAQAVIY MIQYOSDA AMALGA OSHIRILAYOTGAN MHD LOYIHALARINING ASOSIY DONORLARI GLOBAL EKOLOGIK FOND, YASHIL IQLIM FONDI, JAHON BANKI, TURKIYA, XXR, KOREYA RESPUBLIKASI, YAPONIYA HUKUMATLARI VA BOSHQALAR BO'LDI.

BIZ VA DUNYO

RIVOJLANGAN MAMLAKATLAR INVESTORLARI barqaror iqtisodiyotga sarmoya kiritishdan manfaatdor

Prezident Shavkat Mirziyoyevning Italiyaga rasmiy tashrifi va uning natijasida erishilgan kelishuvlar xalqaro axborot makoni va xorijiy ekspertlarning qiziqishiga sabab bo'lmoqda.

Xususan, bir qator nufuzli xorijiy ommaviy axborot vositalari O'zbekiston rahbarining Italiyaga rasmiy tashrifi, ikki mamlakat munosabatlari rivoji yangi bosqichga ko'tarilgani haqidagi maqolalarni e'lon qildi.

Jumladan, Janubiy Koreyaning yetakchi "The Korea Post" jurnali, Eronning "Fars News", Latviyaning "LETA" axborot agentliklari va boshqa ko'plab manbalarda ushbu tashrif dasturi, imzolangan hujjatlar, shuningdek, Italiya va O'zbekiston o'rtasidagi o'zaro hamkorlik haqida turkum maqolalar chop etildi.

Manbalarda qayd etilishicha, ushbu tashrif 1992-yil 24-martda o'tmagan O'zbekiston — Italiya

munosabatlari tarixidagi muhim voqeadir. U mamlakatlar o'rtasidagi ishonchli ko'p qirrali hamkorlikni yangi, yuqori bosqichga olib chiqishga mo'ljallangan.

"Fars News" axborot agentligi tomonidan tarqatilgan maqolada O'zbekiston Prezidentining shtab-kvartirasi Italiya poytaxtida joylashgan BMTning Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkiloti bosh direktori Syuy Dunyuy bilan o'tkazgan samarali uchrashuvi, jumladan, unda oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash kabi ustuvor yo'nalishlarda hamkorlik masalalari muhokama qilgani qayd etilgan.

Latviyaning "LETA" axborot agentligi O'zbekiston va Italiya

o'rtasidagi iqtisodiy hamkorlikka alohida e'tibor qaratdi. Maqolada Savdo-iqtisodiy va sanoat hamkorligi, eksport kreditlari bo'yicha O'zbekiston — Italiya hukumatlararo ishchi guruhi hamda Italiya — O'zbekiston Savdo palatasi muvaffaqiyatli faoliyat ko'rsatayotgani qalqama olingan. "2020-yil oktabr oyida mamlakatimizda Italiya sanoat assotsiatsiyasining "Confindustria" filiali ochildi, shuningdek, "SACE", "SIMEST", "Cassa Depositi e Prestiti", "ICE", "AICE", "Unioncamere" va boshqa mintaqaviy assotsiatsiyalar bilan samarali aloqalar yo'lga qo'yilgan", deb yozadi agentlik.

Tashrif yakunlari, shuningdek, xalqaro ekspert va tahliliy hamjamiyat vakillari tomonidan ham faol sharhlanmoqda.

o'matish, 11 ta eng muhim hujjatlar to'plamining imzolanishi, biznes-forum yakunida umumiy qiymati 9 milliard yevrodan ziyod investitsiyaviy bitim va savdo shartnomalari tuzilgani, hech mubolag'asiz, sammitning naqadar dolzarb ahamiyat kasb etgani hamda o'zbek-italyan hamkorligi tobora kengayib borayotganidan dalolat beradi.

Bundan tashqari, madaniy-gumanitar sohada bir qator muhim bitimlar imzolandi. Joriy yil aprel oyidan boshlab Toshkent va Milan o'rtasida to'g'ridan-to'g'ri aviaqatnovlar ochilgani madaniyat,

ta'lim va turizm sohasidagi hamkorlikni rivojlantirish uchun katta salohiyat mavjudligini yana bir bor ko'rsatdi.

Shu bilan birga, global miqyosda oziq-ovqat tanqisligi va xavfsizligiga xatarlar kuchayib borayotgan bir sharoitda O'zbekistonning FAO bilan sheriklikni yanada kengaytirishi muhim ahamiyatga ega. Bu respublikada yer va suvdan foydalanish, agrosanoat majmui, o'rmon xo'jaligi, ekologiya, chorvachilik va ko'plab boshqa yo'nalishlar kelajakda xalqaro ilg'or standartlar asosida rivojlantirish darak beradi.

Emin GARIBLI,
Ozərbaycan davlat iqtisodiyot universiteti
Xalqaro iqtisodiyot kafedrası dotsenti:



— Jahon inqirozi fonida O'zbekiston bilan Italiya o'rtasidagi iqtisodiy aloqalarining faollashuvi har ikki davlatning barqaror iqtisodiy rivojlanishiga asos bo'lib xizmat qilmoqda.

O'zbekiston bilan Italiya o'rtasidagi iqtisodiy aloqalar, ayniqsa, O'zbekistonning geoiqtisodiy mavqeyi yuksalib borayotgan bir sharoitda katta ahamiyatga ega. Har ikki davlat turli sohalarda o'zaro manfaatli hamkorlikni rivojlantirish salohiyatiga ega. O'zbekiston va Italiya savdo sohasida faol hamkorlik qilmoqda. So'nggi yillarda ikki davlat o'rtasidagi tovar ayirboshlash hajmi sezilarli darajada oshdi. Italiya O'zbekistonning Yevropadagi muhim savdo sherihi hisoblanadi.

Bugun jahon iqtisodiyoti uchun beqaror davr bo'lib, rivojlangan mamlakatlar sarmoyadorlari investitsiya kiritish uchun yangi barqaror

hamkorlikni izlamogda. Italiya o'zining iqtisodiy imkoniyatlarini kengaytirish, savdo sherikliklarini mustahkamlash va iqtisodiyoti uchun yangi o'sish nuqtalarini yaratish uchun barqaror iqtisodiyotlarga sarmoya kiritishdan manfaatdor.

Iqtisodiyotning barqarorligi va shaffofligi rivojlangan mamlakatlar investorlari uchun muhim omil hisoblanadi. Ishlohtor orqali O'zbekiston uzoq muddatli asosda xorijiy sarmoyani jalb qilish va qulay sarmoyaviy muhit yaratish istagini namoyon etmoqda.

O'zbekistonni sarmoyadorlar uchun jozibador qiladigan omillarning ba'zilarini qayd etmoqchiman.

Birinchi — iqtisodiy islohotlar. O'zbekistonda iqtisodiyotni modernizatsiya va diversifikatsiya qilishga qaratilgan keng ko'lami iqtisodiy islohotlar amalga oshirilmogda. Bunga tashqi savdo faoliyatini tartibga solishni liberallashtirish, tadbirkorlik faoliyatini boshlash va yuritish tartib-taomillarini soddalashtirish, davlat korxonalarini xususiyashtirish va boshqa chora-tadbirlar kiradi. Bu islohotlar sarmoya kiritish uchun qulay muhit yaratib, iqtisodiy o'sishni rag'batlantirmogda.

Ikkinchi — investitsiyaviy imtiyozlar. O'zbekistonda xorijiy investorlar uchun turli investitsiya imtiyozlari, jumladan, soliq imtiyozlari, bojxona to'lovlaridan ozod qilish va boshqalar joriy etilgan. Bu investorlar uchun xarajat va xatarlarni kamaytiradi hamda O'zbekistonni sarmoyador uchun jozibador qiladi.

Uchinchi — infratuzilmani rivojlantirish. O'zbekiston o'z infratuzilmasini, jumladan, transport, energetika va kommunikatsiya infratuzilmasini rivojlantirishga faol sarmoya kiritilmogda. Infratuzilmani takomillashtirish

tadbirkorlikni rivojlantirish, savdo aloqalarini kengaytirish va iqtisodiyot samaradorligini oshirish uchun sharoit yaratmoqda.

To'rtinchi — geografik joylashuv. O'zbekiston Osiyo, Yevropa va Yaqin Sharqni bog'lovchi ko'plab transport yo'nalishlari chorrahasida joylashgan. O'zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlar va sarmoyaviy muhitning yaxshilanishi turli mamlakatlar, jumladan, Italiyadan xorijiy sarmoyalarni jalb etishga xizmat qiladi. Italiyaning ko'plab kompaniyalari O'zbekistonda faol biznes yuritib, to'qimachilik sanoati, qurilish, turizm va boshqa sohalarga sarmoya kiritmoqda. Xorijiy sarmoya O'zbekiston iqtisodiyotining rivojlanishiga, yangi ish o'rnlari yaratilishi va texnologiyalar transferiga xizmat qilmoqda.

Ayniqsa, O'zbekiston turli mamlakatlardan, jumladan, Italiyadan ko'plab sayyohlarni o'ziga jalb etuvchi boy madaniy meros va tarixiy joylarga ega ekanini alohida ta'kidlamogchiman. Turizm industriyasining rivojlanishi iqtisodiyotning o'sishiga, yangi ish o'rnlari yaratilishi va turizmning keladigan daromadlarining oshishiga muhim omil bo'lmoqda.

Italiya ilm-fan, texnologiya va innovatsiyalar sohasida yetakchi davlatlardan biri. Texnologiya va innovatsiyalar sohasidagi hamkorlik O'zbekistonda yangi texnologiyalarni o'zlashtirish, mehnat unumdorligi va raqobatbardoshligini oshirish, milliy innovatsion tizimni rivojlantirish imkonini beradi. Ushbu jihatlar O'zbekiston va Italiya o'rtasidagi iqtisodiy aloqalarning ikki davlat uchun muhimligini ko'rsatadi. Mazkur yo'nalishlarda hamkorlikning yanada chuqurlashtirish barqaror jitmoy-iqtisodiy rivojlanishga xizmat qilishi va O'zbekistonda mehnat bozorining yuqori samaradorligini ta'minlashi mumkin.

ko'lami islohotlar amalga oshirilayotir. Buning natijasi o'lroq, O'zbekiston Italiya uchun tobora istiqbolli iqtisodiy hamkorga aylanib bormogda.

Tovar ayirboshlash hajmining o'sishi va Italiyaning 54 ta yirik kompaniyasi respublikada muvaffaqiyatli faoliyat yuritayotgani ham ikki davlat biznes tuzilmalari o'rtasidagi samarali hamkorlikdan dalolat beradi.

Ishonchim komilki, tashrif yakunlari, jumladan, energetika, metallurgiya, qurilish materiallari sanoati, sog'liqni saqlash va tomonlarni qiziqtirgan boshqa sohalarda yangi o'shma loyihalarni ishlab chiqish bo'yicha kelishuvlar O'zbekiston — Italiya munosabatlari yanada rivojlantirish uchun kuchli turki bo'ladi.

“YASHIL” IQTISODIYOT — KELAJAGIMIZ KAFOLATI



Bugun insoniyat yangi tahdidlar oldida turibdi. Sayoramiz aholisi ko'payishda davom etyapti, tabiiy resurslar zaxirasi esa muttasil ravishda qisqarmoqda. Avvalo, global ekologik muammolarning keskinlashuvini kuzataymiz. Dunyo hamjamiyati esa vaziyatni o'nglash uchun jahon iqtisodiyotida “yashil” taraqqiyot tamoyillarini joriy qilish zarurligini ta'kidlaymoqda. Mazkur yondashuv BMTning Barqaror taraqqiyot maqsadlarida ham o'z ifodasini topgan.

Markaziy Osiyo va butun dunyo uchun dolzarb ahamiyatga ega Orol fojiasi, shuningdek, yer va suv resurslaridan samarasiz foydalanish, yerlarning va ekotizimning tanazzulga uchrashi, biologik xilma-xillikning, o'simlik va hayvonot dunyosi turlari genofondining qisqarishi, atmosfera havosi va oqova suv ifloslanishi, sanoat va maishiy chiqindilar to'planishi kabi ekologik muammolar har bir mamlakat bu masalaga yanada jiddiy e'tibor qaratishini taqozo etmoqda. Bu kabi muammolar biz uchun ham juda muhim va kechiktirib bo'lmaydigan masalalardir. Chunki yuqoridagi kabi ekologik masalalar hal etilmasa, kelajakda tuzatib bo'lmaz oqibatlarni keltirib chiqarishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentligiga nomzod Abdushukur Hamzayevning saylovoldi dasturida birinchi yo'nalish mamlakatning barqaror rivojlanishini ta'minlash va “yashil” iqtisodiyotga o'tishini jadallashirishga bag'ishlangani ham ushbu maqsadning naqadar ustuvor va ahamiyatli ekanidan dalolatdir.

Nomzodimiz saylovoldi dasturida qator maqsadlarni o'z oldiga qo'yimoqda. Birinchidan, iqtisodiyotning barcha sohalarini “yashil” iqtisodiyot tamoyillari asosida rivojlantirishga yo'naltirilgan siyosat yuritiladi. Bu esa tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, ularni tejash va biologik resurslarning qayta tiklanishini ta'minlaydi.

Mamlakatimizda “yashil” iqtisodiyotga o'tishda geografik joylashuv, iqlim o'zgarishi hamda innovatsion yondashuvlardan kelib chiqqan holda ish ko'rilmog'unda. O'zbekiston qayta tiklanadigan manbalardan energiya ishlab chiqarish bo'yicha yuqori texnik salohiyatga ega ekanidan kelib chiqib, avvalo, iqtisodiyot tarmoqlarida quyosh, shamol, kichik suv oqimlari, geotermal va biomassa energiyasidan foydalanish hamda ushbu yo'nalishlarga ilg'or innovatsion texnologiyalarni joriy etishga alohida e'tibor qaratish lozim.

Saylovoldi dasturida iqtisodiyotning barcha sohalarida qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanishga o'tish va jarayonni rag'batlantirishning uzviy mexanizmlarini yaratish taklif etilmoqda.

O'zbekiston iqlim sharoitidan kelib chiqadigan bo'lsak, “yashil” energiya manbalarining qariyb 97 foizi quyosh energiyasiga to'g'ri keladi. Yurtimiz hududlarida quyosh energiyasini generatsiyalash qudrati — 525 milliard kVt/soatdan 760 milliard kVt/soatgacha. Buning sababi yiliga quyoshli kunlar soni 320 kun va faol quyosh soatlari soni o'rtacha 3000 soatni tashkil qilishidir.

Bu qayta tiklanuvchi energiya manbalarini barcha jabhalarda keng joriy etish uchun qulay imkoniyatdir. Undan mamlakatimiz iqtisodiy salohiyatini oshirishda yetarlicha foydalanish, har bir sohaga “yashil” iqtisodiyot tamoyillarini olib kirish yo'llari saylovoldi dasturida aniq aks etgan.

Jumladan, qayta tiklanuvchi va muqobil energiya manbalari sohasida bozor mexanizmlarini tatbiq etish, energiya resurslari bozorida xususiy sektor ishtirokini kengaytirishni taklif



etmoqdamiz. Bu orqali aholining muttasil oshib borayotgan energiya ehtiyojini qondirish mumkin bo'ladi.

Avvalo, chekka va olis hududlarda qayta tiklanuvchi va muqobil energiya manbalaridan foydalanuvchilar faol qo'llab-quvvatlanadi. Ular uchun jozibador loyihalar taklif etiladi. Xususiy investorlar uchun imtiyoz va preferensiyalar joriy etish orqali ham sohaga to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni keng jalb etish ko'zda tutilgan.

Dasturda iqtisodiyotning ko'p resurs talab qiladigan energetika, qurilish, qishloq xo'jaligi, transport kommunikatsiyasi tizimi va kommunal sohalarida energiya, resurs tejovchi va boshqa innovatsion ekologik hamda raqamli texnologiyalarni keng joriy etishni qo'llab-quvvatlash ko'zda tutilgan. Ularni hayotga tatbiq etish orqali, avvalo, aholining ehtiyojlarini qondirib, farovonligi, yashash darajasi va sifatini oshirish uchun moddiy ne'matlarni ekologiya va atrof-muhitga zarar yetkazmasdan barqaror ravishda ko'paytirib berish imkoniyatlarini kengaytadi.

Ikkinchidan, mamlakatdagi asosiy ishlab chiqaruvchilar, ayniqsa, yirik korxonalar “yashil” texnologiyalarga yo'naltiriladi.

Butun dunyoda, qolaversa, mamlakatimizda ham tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, ularni tejash va biologik resurslarning qayta tiklanishini ta'minlash tobora dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

O'zbekiston Parij bitimi doirasida 2030-yilgacha yalpi ichki mahsulot birligiga to'g'ri keladigan issiqxona gazlari tashlanishini 35 foiz kamaytirish majburiyatini yana bir bor tasdiqlaydi.

2026-yilga borib “yashil” energiya ulushini 8 ming MVtgacha oshirish rejalashtirilgan, bu esa karbonat angidrid chiqindilarini 5 million tonnaga kamaytirish imkonini beradi.

Tadqiqotlardan ma'lum bo'lishicha, O'zbekiston uglevodorod energiyasi — neft, gaz, ko'mirdan foydalanish hisobiga har yili yalpi ichki mahsulotning kamida 4,5 foizini yo'qotmoqda. Qolaversa, mamlakatdagi energiya ishlab chiqaruvchi quvvatlarning salkam yarmi eskirib bo'lgan. Ularni tiklash yoki modernizatsiyalash esa katta mablag' talab qiladi. Buning o'rniga ham iqtisodiy, ham ekologik jihatdan samarali hisoblangan “yashil” energetikaga o'tish har jihatdan afzaldir.

Uchinchidan, O'zbekiston investitsiyaviy jozibadorligini oshirish maqsadida “Yashil viza” (Green Visa) dasturini joriy etish taklifi ilgari surilgan. Bu orqali mamlakatimizga tabiiy resurslardan samarali foydalanish uchun kapital jalb qilinishi e'tiborga loyiqdir.

Buning samarasida dunyoning rivojlangan “yashil” ishlab chiqaruvchilari mamlakatimizga kirib kela boshlaydi va

qayta tiklanuvchi energiya manbalari hosil qiluvchi texnologiyalar bozorida kuchli raqobat shakllanadi. Natijada aholi va kichik biznes subyektlarining “yashil” energiya manbalaridan foydalanish imkoniyati sezilarli oshadi, mahsulot va texnologiyalar tannarxi pasayadi.

To'rtinchidan, tarmoqlar va hududlarning “yashil” iqtisodiyotga o'tish indeksi”ni ishlab chiqish taklifi ilgari suriladi. Bu bizga nima beradi?

Avvalo, mamlakatimizda “yashil” iqtisodiyotga o'tish borasida keng ko'lamda sharoit va imkoniyatlar yaratilgan ekan, undan maqsadli foydalanish orqaligina ko'zlangan natijalarga erishish mumkin. Iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida hamda hududlarda bu imkoniyatlardan foydalanish darajasiga baho berish uchun ham “yashil” iqtisodiyotga o'tish indeksi” talab etiladi. Qolaversa, “yashil” iqtisodiyot mamlakatimiz kelajagi ekan, qaysi tarmoq yoki hududning bunga tayyor ekani yoxud orqada qolayotgani yaqqol ko'rinadi.

Bugun mamlakatimizda korxon va tashkilotlarga, aholining turli qatamlariga muqobil energiya manbalaridan foydalanish, ishlab chiqarish jarayonida

subsidya hamda grantlar, soliq imtiyozlari taqdim etilyapti. Bizning ayni shu sa'y-harakatlarimiz, iqtisodiyot tarmoqlarida hammasi “yashil” bo'lishi uchun qilinayotgan ishlar natijasi ham yuqorida taklif etayotganimiz — “yashil” iqtisodiyotga o'tish indeksi”da yaqqol ifodasini topadi.

“Yashil” iqtisodiyot — insonning tabiat resurslariga mas'uliyatli munosabatini o'z ichiga olgan va farovonlikning o'sishi hamda tabiiy resurslarni tejash o'rtasida oqilona murosani topishga qaratilgan iqtisodiy rivojlanish modeli.

“Yashil” iqtisodiyotga o'tish birdaniga amalga oshadigan tezkor jarayon emas, albatta. Bu borada qanday moliyaviy instrumentlardan foydalanish muhimligini e'tibordan chetda qoldirmasligimiz zarur. Ayniqsa, bu jarayonda davlatning o'rni, bozor mexanizmlari uchun yaratilayotgan shart-sharoit sohaning nechog'liq rivojlanib ketishida hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Ekologik partiyasidan Prezidentlikka nomzod “yashil” iqtisodiyotni rivojlantirishning moliyaviy yukini to'liq davlat budgetiga yuklash

berish, “yashil” iqtisodiyot tamoyillari asosida ishlab chiqarish uchun rag'bat va motivatsiya uyg'otish biz ko'zlayotgan maqsadlarga erishishning ustuvor yo'nalishiga aylanadi.

Oldimizda turgan asosiy masalalardan biri — energetika tizimidagi muammolarning oldini olish va ularni bartaraf etish. Aholini va iqtisodiyot tarmoqlarini uzluksiz energiya bilan ta'minlash muhim masala. Shu bois, nomzodning saylovoldi dasturida bunga alohida e'tibor qaratilmoqda.

So'nggi yillarda yurtimizda 6 ta yangi issiqlik va 1 ta quyosh fotoelektr stantsiyasi ishga tushirilib, oxirgi 5 yilda elektr energiyasi ishlab chiqarish bo'yicha yaratilgan yangi quvvatlar hajmi 5000 megavattndan oshganini alohida qayd etish joiz. Biroq aholi va iqtisodiyot tarmoqlarining energiyaga nisbatan o'sib borayotgan ehtiyojini hisobga olsak, yaqin yillar ichida bunday natijalar mamlakatimiz uchun yetarli bo'lmay qolishi mumkin.

Nomzodning saylovoldi dasturida mamlakatda energiya barqarorligini ta'minlashda xavfsiz va bezarar yo'l sifatida qayta tiklanuvchi energiyani rivojlantirishga alohida urg'u berilmoqda. Xususan, bu boradagi ishlarni imkon boricha tezroq va sifatliroq amalga oshirish orqali xalqimizni elektr energiyasi tanqisligi muammosidan xalos qilishning muqobil va xavfsiz yo'llari taklif etilyapti.

Birinchidan, qayta tiklanadigan energiya manbalarini rivojlantirishga qaratilgan “Yashil energetika strategiyasi”ni ishlab chiqishimiz zarur. Buning ahamiyati shundaki, shu orqali oldimizda turgan asosiy masalalardan biri — energetika tizimidagi muammolarning oldini olish va ularni bartaraf etish mumkin bo'ladi.

O'zbekistonda qayta tiklanuvchi energiya manbalarining ishlab chiqarish quvvatini 15 Gvt ga oshirish va ularning ulushini elektr energiyasini ishlab chiqarish umumiy hajmining 30 foizdan ko'prog'iga yetkazish uchun katta sarmoya kiritilishi zarur. Ammo bugungi kun talabidan kelib chiqadigan bo'lsak, bu boradagi ishlarni yangi bosqichga olib chiqish vaqti yetdi.

Ikkinchidan, iqtisodiyotning ko'p resurs talab qiladigan energetika, qurilish, qishloq xo'jaligi, transport kommunikatsiyasi tizimi va kommunal sohalarida energiya, resurs tejovchi va boshqa innovatsion ekologik hamda raqamli texnologiyalarni keng joriy etish, birinchi galda davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanishi kerak.

Partiyamizdan Prezidentlikka nomzod “yashil” iqtisodiyot faqat energetika sohasini isloh qilishdan iborat emasligini ta'kidlaymoqda. Bunda oziq-ovqat xavfsizligi, qishloq xo'jaligidagi innovatsiyalar, barqaror shaharlar, chiqindilarni oqilona boshqarish, o'rmon hududlarini kengaytirish, cho'llanishni qisqartirish kabi ko'p qirrali chora-tadbirlar ham ilgari surilmoqda.

“Yashil” iqtisodiyotga o'tishdagi navbatdagi qadam — aholini ekologik toza tovarlar sotib olishga undash, “yashil” texnologiyalarga tayanuvchi tadbirkorlik subyektlarini rag'batlantirish, qurilishda, energiyani ko'p talab qiluvchi tarmoqlarda energiya samarador texnologiyalarni joriy qilish. Ushbu tizimni yaratishda davlat tartibga soluvchi vazifani bajarishi kerak.

Bugungi global masalalardan yana biri atmosfera havosiga chiqarilayotgan zaharli gazlar miqdorini kamaytirish va ekologik xavfsizlikni ta'minlash hisoblanadi. Zotan, “yashil” iqtisodiyotning asosiy talabi ham umumiy iqtisodiyotni tabiat va atrof-muhitga zarar keltirmasdan rivojlantirishdan iboratdir.

O'zbekiston Ekologik partiyasidan O'zbekiston Respublikasi Prezidentligiga nomzodning saylovoldi dasturida atmosfera havosi ifloslanishi muammosiga yechim bo'ladigan qator takliflar ilgari surilmoqda.

“Yashil” iqtisodiyotga o'tishning muhim bosqichi transportlardan chiqadigan chiqindilarni kamaytirishdir. O'zbekistonda 2022-yilda atmosferaga tashlanmalar miqdori 2,057 million tonnani tashkil qilgan bo'lsa, shundan 63

foizi transport vositalari, 37 foizi sanoat va ishlab chiqarish korxonalarini hissasiga to'g'ri keldi. Shuning uchun ham bugun hayotimizning ajralmas qismiga aylangan transport vositalari va ulardan chiqayotgan zaharli gazlar muammosiga yechim topishimiz shart.

Shuningdek, 2022-yilda birgina Toshkent shahrida transport vositalaridan atmosferaga chiqarilgan ifloslantiruvchi moddalar miqdori 403 ming tonnani tashkil etgan bo'lsa, mamlakat bo'yicha bu ko'rsatkich 1 million 296,9 ming tonnaga yetgan. Mana shu raqamlarning o'ziyoq mamlakatimizda uglevodorod xomashyosi bilan yuradigan transport vositalari kelajagi haqida jiddiy o'ylab ko'rishga undaydi.

Saylovoldi dasturda ushbu muammoga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu boradagi eng muhim tashabbus — 2030-yildan boshlab mamlakatda ichki yonuv dvigatelli yengil avtomobilarni sotish, chetdan olib kirishni taqiqlash taklif etilyapti. Shu bilan birga, atmosferani ifloslantirishda yuk tashuvchi yirik mashinalar ulushi hisobga olinib, yuk tashishni yirik yuk mashinalaridan temir yo'llarga va atrof-muhitga kamroq ta'sir ko'rsatadigan boshqa transport turlariga o'zgartirishimiz zarur.

Bunday strategik maqsadlar dunyoning rivojlangan mamlakatlarida allaqachon kun tartibiga chiqqan. Xususan, Yaponiyada qayta tiklanuvchi energiya manbalari hisobiga 2050-yilga kelib avtotransportdan atmosferaga tashlanmalarini nol foizga tushirish rejalashtirilgan. Buyuk Britaniya esa 2030-yilga borib dizel va benzinli avtomobillar sotilishini butunlay taqiqlamoqchi. AQSHda 2030-yilga kelib barcha yangi yengil avtomobillar va yirik mashinalarining 50 foizini nol chiqindili transportlarga almashtirish rejalashtirilgan.

Dunyoda inson faoliyati natijasida har yili atmosferaga 20 milliard tonna karbonat angidrid gazi chiqariladi va 300 million tonnadan ortiq plastik chiqindi hosil bo'ladi. “Yashil” iqtisodiyot tamoyillarining eng asosiylaridan biri esa barqaror ishlab chiqarish va iste'molning davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanishi, shuningdek, kam uglerodli, resurslarni tejovchi texnologiyalarni joriy qilishdan iboratdir.

Yangi iqtisodiy modelga o'tish bosqichma-bosqich yondashuvni talab qiladi. O'tishning asosiy bosqichlarini Yevropa Ittifoqi tomonidan joriy etilayotgan ekologik tashabbuslar misolida ko'rish mumkin. Bunda birinchi bosqichda atrof-muhitga zarar yetkazuvchi ishlab chiqarishga investitsiyalarni kamaytirish muhim hisoblanadi. Yevropadagi ko'plab banklar 2022-yildan boshlab gaz loyihalariga kredit berishni to'xtatmoqda. Bu nafaqat sanoatni imtiyozli davlat kreditlaridan mahrum qiladi, balki xususiy investorlarni jalb qilishni ham kamaytiradi.

O'zbekiston Ekologik partiyasi nomzodi tomonidan taklif etilayotgan har bir dasturiy yo'nalish zamirida mamlakatimizni “yashil” tamoyillar asosida barqaror rivojlantirish, sof va toza atrof-muhit yaratish, inson va tabiat uchun birdek xavfsiz hayot bunyod etish kabi ezgu maqsadlar yotadi.

Xalqimizni, ekologiyaga befarq bo'lmagan barcha fuqarolarimizni dasturimizda belgilangan ustuvor vazifalarni amalga oshirishda, atrof-muhitni muhofaza qilish va bebaho tabiiy boyliklarni asrab-avaylashdek muhim maqsadlarga erishishda birgalikda faol ishtirok etishga chaqiramiz.

Ona tabiatimizni asrash masalasiga befarq bo'lmang!

Xayrullo GAPPOROV,
Oliy Majlis Qonunchilik palatasi
Spikeri o'rinbosari,
O'zbekiston Ekologik partiyasi
fraksiyasi raisi



**O'ZBEKISTON EKOLOGIK PARTIYASIDAN PREZIDENTLIKKA NOMZOD
ABDUSHUKUR HAMZAYEVGA OVOZ BERING!**



TAHLIL VA TAQQOS

— 2017-yildan buyon O'zbekiston uchun muhim muvaffaqiyat omillaridan biri ochiqlik bo'ldi, — deydi YTTBning mintaqaviy yetakchi iqtisodchisi Erik Livin jurnalistlarga bergan intervyusida. — Mijozlarimiz orasida ko'plab kompaniyalar o'z faoliyatini 2018-yilda boshladi, ular uchun savdo qilish, valyuta ayirboshlash imkoniyatlari paydo bo'ldi va kompaniyalar bashorat qilinadigan muhitda ishlay boshladi. Xususiy lashtirish jarayoni ham muhim omil. To'g'ri, u juda tez rivojlanayotgani yo'q. Lekin biz Vengriyaning OTP banki tomonidan "Ipotekabank" sotib olingani bank sohasida katta yutuq bo'lgani ko'rdik. Bu shunchaki bank sotuvi emas, bu uning ishiga munosabatning butunlay o'zgarishidir. Xuddi shunday hodisa Gruziyaning TBC bankiga ham taalluqli. Uning yordami bilan tartibga solish va raqamli bankning butun tizimi qayta qurildi. Hozir TBC raqamli yo'nalishga o'tayotgan

Tadqiqotlar nimani ko'rsatmoqda?

Hozir Yevropa Ittifoqiga 28 davlat a'zo. Jahon savdo tashkilotiga esa 164 mamlakat birlashgan. Demakki, O'zbekistonning dunyodagi eng yirik ushbu iqtisodiy tashkilotga a'zo bo'lishi yana 136 davlat bilan adolatlil savdo tizimini yo'lga qo'yish va barqaror bozorlarni yaratish imkonini beradi. Chunki global savdo va jahon yalpi ichki mahsulotining 95 foizi JSTga a'zo mamlakatlar hissasiga to'g'ri keladi. O'zbekiston tovar aylanmasining 97 foizi ushbu davlatlarning birgalikdagi ulushini tashkil etadi.

Jahon bankining uch yil oldingi ma'lumotiga ko'ra, Yevropa Ittifoqi yalpi ichki mahsulotining 91, Zambiyada 70, Kanadada 65, Janubiy Afrikada 59, Hindistonda 40, Indoneziya va

bo'lishimiz katta imkoniyatlar yaratadi. Bozorga kirish raqobat degani, bu da'vatni qabul qilishga tayyormiz, — dedi YTTBning Samarqanddagi formida O'zbekiston Bosh vaziri o'rinbosari Jamshid Xo'jayev. — Bozorimizda ko'plab davlat korxonalari

o'shishi hisobiga eksport hajmi 0,06 foiz ortishi va ichki tovarlar taklifi 0,03 foiz kamayishi mumkinligi qayd etiladi. Ayni paytda ichki bozorda narx pasayishi natijasida iste'mol hajmi 0,11 foiz ortadi. Davlat budjeti daromadlari qisqarishi hisobiga jami jam'armalar 0,35 foiz kamayadi. Jam'armalar hajmi kamayishi investitsiyalar darajasi 0,16 foiz tushishiga olib kelish ehtimoli bor.

Birinchisi bosqichda O'zbekistonning JSTga a'zo bo'lishi va buning natijasida tariflar pasaytirilishi mahalliy mahsulotlarga talabning muayyan darajada pasayishiga olib keladi. Bu esa, o'z navbatida, mahalliy kompaniyalar faoliyati samaradorligini oshirish zarurati keltirib chiqaradi. Aks holda, xorijiy kompaniyalar bilan narx raqobatiga dosh bera olmaydigan samarasiz korxonalar bozordan chiqib ketishiga to'g'ri keladi.

Birinchisi bosqichda muammosiz o'tishni ta'minlash va O'zbekistonda milliy korxonalarini tashqi raqobat sharoitiga bosqichma-bosqich tayyorlash uchun yangi muhitni yaratish tavsiya etiladi.

Bu masalani hal etish bo'yicha Jamshid Xo'jayev bildirgan fikrlarga e'tibor qaratamiz: "Sanoatda davlat subsidiyasi bilan ishlaydigan kompaniyalar, ayniqsa, elektronika va qishloq xo'jaligiga aloqador tarmoqlarda, erkin bozor sharoitida ishlay olish uchun hozirgi strategiyasini qayta ko'rib chiqishi lozim. Tashkilotga qo'shilish uchun ko'plab muhokama jarayonlarida ishtirok etyapmiz. Biz uchun muhim omil — sanoatimizga ziyon yetkazmasdan murosaga kelish. Trend dinamik bo'ladi, biz bu borada faol ish olib boraymiz. Delegatsiya rahbari sifatida muzokaralarni tezroq va qisqa muddatda yakunlashni xohlardim".

Huquqatdan, erkin bozor sharoitida faoliyat yuritish ishlab chiqaruvchilarning uchinchi dastlabki bosqichda oson bo'lmaydi. Lekin xorijiy kompaniyalarning yurtimiz bozoriga kirishi bilan tariflarning bosqichma-bosqich pasaytirilishi mahalliy korxonalar uchun ishlab chiqarish jarayonini optimallashtirish, texnologik va kadrlar bazasini takomillashtirish orqali sifatini oshirish, narx siyosatini qayta ko'rib chiqish hamda iste'molchilarning didi va ehtiyojini tizimli ravishda o'rganib, shu asosda maqsadli mahsulot ishlab chiqarish va xizmatlar ko'rsatishiga katta turtki beradi.

Zamonaviy marketing tadqiqotlari ham buni tasdiqlab turibdi. Binobarin, hozirgi kunga kelib, ko'plab kompaniyalar ommaviy va tovarlarga qaratilgan marketingdan voz kechmoqda. Ular o'rninga maqsadli marketingni afzal ko'rmoqda. Maqsadli marketing sotuvchilarga qiyay bozor imkoniyatlarini, ishlab chiqaruvchilarga esa bozorning har bir maqsadli segmenti uchun zarur bo'lgan mahsulotlarni topishga yordam beradi. Kompaniyalar o'z tovarlarini, ularning narxlarini, taqsimlash vositalarini va reklamlari har bir maqsadli bozorga maqsadli moslashtirib olishi mumkin bo'ladi. "Avtomat" usulidagi umumiy o'rganishlardan ko'ra, jahonning qaysi nuqtasida bo'lishidan qat'i nazar, aynan shu tovarni xohlovchi xaridorlarga e'tibor qaratiladi.

Qurilish sohasida soliq ma'muriyatchiligi, ruxsatonoma va litsenziyalari, gaz ta'minoti, korruptsiya va kadrlar yetishmasligi bilan bog'liq muammolar haqida xabar berish kamaydi.

Xizmat ko'rsatish sohasida yer uchastkalaridan foydalanishda muammoli jihatlari ko'paygani holda, moliyaviy munosabatlarga kirishishda qiyinchiliklarni ko'rsatuvchi tadbirkorlar ulushi 3 foizga, yuqori soliq stavkalari esa 4 foizga kamaygan.

Bilamizki, Yangi O'zbekistonning 2022-2026-yillarga mo'ljallangan taraqqiyot strategiyasida tadbirkorlik faoliyatini tashkil qilish va doimiy daromad manbalarini shakllantirish uchun sharoitlar yaratish, xususiy sektorning yalpi ichki mahsulotdagi ulushini 80 foizga va eksportdagi ulushini 60 foizga yetkazish mo'ljallangan.

Yuqoridagi raqamlardan ko'rinib turibdiki, bugun O'zbekistonda ishbarmonlik muhitiga ta'sir etuvchi siyosiy, iqtisodiy, huquqiy, ijtimoiy omillarga katta ahamiyat berilayotgani ushbu maqsadga erishish yo'lidagi sa'y-harakatlardir. Ya'ni, eng avvalo, ishbarmonlik muhitini shakllantirish uchun huquqiy zamin yaratilgani, aniqrog'i, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish uchun qonun ustuvorligi ta'minlanayotgani, bu qonunlar tadbirkorlik faoliyatini kuchaytirish tomon yo'naltirilayotgani e'tiborga molik.

Taraqqiyot strategiyasi xorijiy investitsiyalarni o'zlashtirish va zamonaviy texnologiyalarni keng qo'llash bilan bog'liq muhim vazifalarni o'z ichiga qamrab olgan ekan, bunda ishbarmonlik muhitini yanada yaxshilash maqsadida kichik biznes va tadbirkorlikni raqobat asosida rivojlantirish uchun yangi yondashuvlarni taqozo etadi.

erkin bozorga moslashish, raqobatbardoshlikni oshirishga xizmat qiladi

Boshlanishi 1-betda

Abdurauf QORJOVOV, iqtisodiy sharhlovchi

Mutaxassislar fikricha, ayni paytda marketingning uch mingdan ortiq ta'riflari bo'lib, ularning barchasiga xos bo'lgan umumiy xususiyat asosiy e'tiborni tovar ishlab chiqarishda iste'molchiga, uning xohishi va ehtiyojlariga qaratilgan. Shu bois, ishlab chiqarish bilan shug'ullanuvchi marketologlar "Biz mahsulot so'lmaymiz — iste'molchi talabini qondiramiz!" deyishadi. Amerika marketing uyushmasi uni yanada aniqlashtirib, bunday deydi: "Marketing shunday jarayonki, uning yordamida o'ylangan g'oya rejalashtiriladi va amalga oshiriladi, narx shakllantiriladi, g'oya, tovar hamda xizmat ko'rsatish so'lish, ayrim shaxslar va tashkilotlarning ehtiyoj-maqsadlari ayirboshlash yordamida qondiriladi".

Demakki, marketing nafaqat falsafa, fikrlash tarzi va iqtisodiy tafakkur yo'nalishi, shu bilan birga, ayrim firma, kompaniya, tarmoq va butun iqtisodiyot bo'yicha amaliy faoliyatni o'z ichiga oladi. Uning evolyutsiyasi, mazmuni boyib borishi har qaysi mamlakatning o'ziga xos xususiyati va bozor munosabatlari darajasi bilan ham uzviy bog'liq.

O'zbekistonda bu konsepsiya ijtimoiy talablarni hisobga olgan holda rivojlantirib borilmoqda. Yangicha islohotlar, taraqqiyot strategiyasining muhim maqsadlari milliy sanoat marketing siyosatining uzviy qismini tashkil etadi. Buning amaliy jihatlari Yevropa Ittifoqiga a'zo mamlakatlar bilan iqtisodiy hamkorlik bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar misolida ko'rish mumkin.

Iqtisodiyot erkinlashuvi "katalizator" vazifasini o'tamoqda

Joriy yil may oyida Samarqandda Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki (YTTB) ning yillik forumi bo'lib o'tdi. Unda asosiy e'tibor "Barqarorlikka sarmoya kiritish" mavzusiga qaratildi. Sessiyalardan birida mamlakatimiz iqtisodiyotining kutilayotgan o'sish sur'atlari va investitsiyalarni jalb etish imkoniyatlarini muhokama qilindi. Tom

ma'noda aytganda, zamonaviy marketing talablari asosida yurtimizning yaqin kelajakdagi taraqqiyotining asosiy jihatlari tahlil etildi.

— YTTBning bunday yig'ilishi yurtimizda 20 yil oldin bo'lib o'tgan edi, — deydi iqtisod fanlari doktori, professor Nodir Jumayev. — Keyingi olti yilda mamlakatimiz siyrati va surati tubdan o'zgaradi. Dunyoga keng ochilayotgan, barcha sohalarda hamkorlikka tayyor yangi O'zbekistonga aylanib boryapti. Valyuta tizimi erkinlashtirilgani, tashqi bozorlarga chiqish to'siqlari olib tashlangani, 7 mingdan ziyod xomashyo va tovarga bo'xona boji bekor qilinishi natijasida tashqi savdo aylanmasi ikki karra oshdi. Yillik xorijiy sarmoyalar hajmi 2017-yildagiga nisbatan 3 barobar ko'paydi.

Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki iqtisodiy barqarorlikka erishishda strategik hamkoriga aylangan sheriklarimizdan biri hisoblanadi. Bankning mamlakatimizdagi loyihalar portfeli qiymati 4 milliard yevrodan oshgan, shundan 3,3 milliard yevrologi so'nggi to'rt yilga to'g'ri keladi. Xususan, birgina 2022-yilda O'zbekistondagi 26 ta loyihaga 900 million yevro investitsiya ajratildi.

Albatta, loyiha nechog'liq muhim yoki dolzarb bo'lishidan qat'i nazar, xorijiy sarmoyador yoki nufuzli moliyaviy muassasa unga pul tiklavermaydi. Bunda nainki ajratilgan sarmoya o'zini oqlashi va vaqtida qaytarilishiga ishonch, balki investorlar uchun yaratilgan huquqiy kafolatlardan to'lib, tovarlar, xizmatlar, kapital va mehnat bozorlarining erkinlashtirish darajasigacha hisobga olinadi. O'rtiqcha byurokratiyani qisqartirish va korruptsiyaga barham berish bilan bog'liq jarayonlar ham marketing tadqiqotlari diqqat markazida turadi.

Ana shulardan kelib chiqqan holda, YTTB investitsiyalari bugungi kunda o'ta dolzarb bo'lgan "yashil" energetika, ichimlik suv, yo'l-transport infratuzilmasi, ekologiya kabi sohalarga yo'naltirilmoqda. Jumladan, qayta tiklanadigan energiya sohasida bankning 600 million yevro mablag'i ishtirokidagi yirik loyihalar amalga oshirilayapti. Bunday faol hamkorlik yurtimiz iqtisodiyotiga boshqa xorijiy investorlarni jalb etishda ham katalizator vazifasini o'tamoqda.



mahalliy banklar bilan mustaqil ravishda raqobatlashishi kerak. Shunday qilib, tashqaridan keladigan katta raqobat asosiy manfaatlar hisoblangan iste'molchilar uchun foydalidir.

Eksportlar "GSP+" tartibi tufayli yurtimizning Yevropa bozoriga o'chilgan imkoniyatlarini kengayib borayotganini e'tirof etadi. Xususan, joriy yil boshidan buyon tovar ayirboshlash qariyb 70 foiz o'sdi. Yevropaning yetakchi kompaniya va banklari bilan yuqori texnologik ishlab chiqarish, yangi ish o'rinlari yaratish bo'yicha istiqbolli loyihalar portfeli 20 milliard yevrodan ziyodni tashkil etmoqda.

Ana shu sarmoyani tezroq o'zlashtirish YevroIttifoq bilan savdo munosabatlari tubdan kengaytirishni taqozo etadi. Marketologlar fikricha, bu jarayonda mamlakatimizda barqaror savdo-logistika zanjirlari va o'zaro mahsulot yetkazib berishini qo'llab-quvvatlashning samarali mexanizmlarini yaratish, "GSP+" tartibining amal qilish muddatini uzaytirish muhim o'rin tutadi. Chunki ayni kunda "GSP+" dasturi doirasida 6 mingdan ortiq turdagi mahsulotimizni Yevropa bozorlariga yetkazib berish imkoniyati yaratilgan.

Yaponiyada 37, Xitoyda 36, AQSHda 26 foizi tashqi savdo bilan bog'liq bo'lgan. Xalqaro savdo iqtisodiyotni rivojlantirish hamda kambag'allikni kamaytirishda misli ko'rmagan imkoniyatlarini taklif qiladi. Biroq ushbu salohiyat ro'yobini ta'minlash global savdoni xalqaro darajada boshqarish va tartibga solishni taqozo etadi. Agar bunday boshqaruv va majburiy tamoyillar bo'lmasa, xalqaro globalashuv va savdo hozirgi vaziyatni yaxshilash o'rninga iqtisodiy tengsizlik, ijtimoiy adolatsizlik, atrof-muhit tanazzuli va madaniy birxillikni kuchaytirishi mumkin.

O'zbekiston kelgusi uch yilda tayyor mahsulot eksportini 2 barobar oshirishni reja qilgan. Bunga erishishning yaqona yo'li Jahon savdo tashkilotiga a'zo bo'lish ekan, bu, o'z navbatida, tovarlar, xizmatlar, kapital va mehnat bozorlarini yanada erkinlashtirish, dunyodagi ishlab chiqarish zanjirlariga qo'shilishni jadallashtirishni kun tartibiga qo'yimoqda.

— JSTga a'zo bo'lish — uzoq va murakkab jarayon. Bu borada islohotlarni davom ettirishimiz kerak. Qonunchilik normalimiz va texnik standartlarimizni muvofiqlashtiraymiz. Mahalliy ishlab chiqaruvchilarning uchun JSTga a'zo

ISLOHOT ODIMLARI

Feruzbek DAVLETOV, Iqtisodiy tadqiqotlar va islohotlar markazining sanoat klasterlari faoliyatini rivojlantirish sho'basini rahbari

Iqtisodiyotni liberallashtirish orqali raqobatni rivojlantirishga qaratilgan katta e'tibor ishbarmonlik muhitini yaxshilashga mustahkam zamin yaratadi. Bugungi kunda mamlakatimizning olis hududlarida ham zamonaviy tadbirkorlik subyektlari paydo bo'lib, bozor uchun import o'rnini bosuvchi, eksportbop yangi mahsulotlar ishlab chiqarish o'zlashtirilayotgani buning tasdiqidir.

Iqtisodiy tadqiqotlar va islohotlar markazi har oyda real sektor va xizmatlar sohasida ishbarmonlik muhitini o'rganish hamda hududlarda biznes-faollik bo'yicha turkum axborot-tahliliy materiallar nashr etib boradi. Bunda biznes holatining qisqa muddatli sifatli baholanishi so'rovlar va rasmiy statistik ma'lumotlar asosida amalga oshiriladi. Jumladan, may oyidagi so'rovlar shuni ko'rsatdiki, ishbarmonlik muhitining jamlangan indeksi bir oy oldingi pasayishdan keyin o'sgan, ya'ni avvalgi o'yoq nisbatan 1 punktga oshib, 60 punktni tashkil etdi. Biznes holatining o'zgarishi ko'proq qurilish va sanoat sektoridagi ijobiy

o'zgarishlarga bog'liq bo'ldi. Shu bilan birga, xizmat ko'rsatish sohasidagi biznes-iqlim bir oz pasaygan bo'lsa-da, umuman olganda, o'tgan oyda O'zbekistonda ishbarmonlik muhiti holati sezilarli darajada yaxshilangan. Respublika bo'yicha 1000 dan ortiq tadbirkor ishtirok etgan so'rov natijalari shuni ko'rsatadi.

So'rovnomada o'z biznesining hozirgi holatini "yaxshi", deb baholagan respondentlar ulushi 40 foizni, "yomon" deb baholovchilar esa 12 foizni tashkil etdi. Shu bilan birga, korxonalarining 23 foizi ishchilar sonini ko'paytirgan, 45 foizi o'z tovar va xizmatlariga talab o'sganini qayd etdi.

ISHLAB CHIQRISHDA O'SISH, XIZMAT KO'RSATISHDA-CHI? MAY OYIDA ISHBILARMONLIK MUHITI JIHATLARI




CERR

Ta'kidlaganimizdek, jamlangan ko'rsatkichning o'sishiga sanoat va qurilish tarmoqlaridagi biznes-iqlim dinamikasi sezilarli ta'sir ko'rsatdi. Xususan, sanoatda ishbarmonlik koeffitsiyati 13 punktga o'sib, 67 punktga yetdi, qurilish sektorida esa mos ravishda 12 punktga ko'tarilish, ya'ni 70 punktga o'sish kuzatildi. Biroq agar xizmat ko'rsatish sohasidagi ishbarmonlik muhitining jamlangan ko'rsatkichi yil boshidan beri ketma-ket to'rt oy davomida barqaror o'sishni ko'rsatgan bo'lsa, may oyida u 7 punktga pasayib, 60 punktni tashkil etdi.

Biznesni rivojlantirish istiqbollari kutishning jamlangan ko'rsatkichi uchun qiymatga o'sib, 75 punktni tashkil etdi. Bu sanoat sektoridan tadbirkorlar ishonchi yaxshilangan bilan izohlanadi. Xususan, ushbu sektordagi biznes kutilmalari bir oy ichida 20 punktdan ko'proqqa ko'tarilib, 61 punktdan 82 punktga yaxshilandi.

Keyingi uch oyda o'z biznesi umumiy ahvoli yaxshilanishini kutayotgan tadbirkorlar ulushi 74 foizni tashkil etdi, 69 foizi tovar va xizmatlarga talabning yanada oshishiga umid bildirgan. 64 foizi esa ishchi-xodimlar sonini ko'paytirishni rejalashtirmoqda. Shu bilan birga,



tadbirkorlarning 20 foizi yaqin uch oy ichida o'z tovar va xizmatlari narxi oshishini kutmoqda.

Umuman olganda, ushbu ko'rsatkichlar va kutilmalar o'rtasidagi bog'liqlik tahlili iqtisodiyot rivojlanishidagi ijobiy tendensiya kelgusi uch oyda ham davom etishini bildiradi.

Yana bir diqqatga sazovor jihat: to'siqlarga duch kelgan tadbirkorlar soni bir oyda 6 foizga kamaygan. Masalan, moliyalashtirish va yer uchastkalaridan foydalanishda qiyinchiliklarga duch kelgan

respondentlar ulushi bir oy ichida mos ravishda 4 va 10 foizga kamaydi. Aprel-may oylarida yuqori soliq stavkalari xususida savoli bor tadbirkorlar ulushi 9 foizdan 4 foizga tushdi.

Qishloq xo'jaligi vakillarining soliq ma'muriyatchiligidagi muammolar bo'yicha savoli 9 foizga oshdi. Shu bilan birga, moliyalashtirishda qiyinchiliklar mavjudligini qayd etganlar ulushi 15 foizga, yer uchastkalarini va suv ta'minotida esa 6 foizga kamaydi.

NUQTAYI NAZAR



Mirzayusuf RUSTAMBOYEV, Jamoat xavfsizligi universiteti boshlig'i, yuridik fanlar doktori, professor

HAR BIR ISH, HAR BIR QONUN

avvalo, xalqimiz va Vatanimiz manfaatini nazarda tutadi

hamkorlik tashkiloti missiyasi Bosh kotibi Chjan Ming "...Referendumda keksa-yu yoshning, birinchi marta ishtirok etgan yigit-qizlarning yuz-ko'zida quvonchni ko'rdim. Ularda yurt ertasi va istiqboliga ishonch bor. Chunki yangi tahrirdagi Konstitutsiyada inson qadri qadri ulug'lash, aholining turmush farovonligini ta'minlash, huquq va burchlari, bilim olish, mehnat qilish hamda boshqa haq-huquqlari uchun muhim kafolatlar belgilangan. Bu esa xalqingiz o'z kelajagini o'z qo'li bilan hal etayotganini ko'rsatadi", deya ta'kidladi. Yurtimizdagi islohotlarga yuqori baho bergan Xitoy ijtimoiy fanlar akademiyasining Rossiya, Sharqiy Yevropa va Markaziy Osiyo instituti direktori Sun Chjuanji esa, "...O'zbekiston o'z kuchi va salohiyatiga tayangan, jadal rivojlanayotgan davlatga aylanmoqda. Mamlakatning yangi tahrirdagi Konstitutsiyasi ushbu maqsadlar amalga oshirishning kafolatidir", degan.

Qisqa muddatda yangi tahrirdagi Konstitutsiyadan kelib chiqqan holda bir qator qonun, qonunosti hujjatlar va konsepsiyalarni qabul qilish, mavjudlarga tegishli o'zgartirish va qo'shimchalar kiritishga doir muhim chora-tadbirlar belgilandi. Jahonda ro'y berayotgan yangidan-yangi sinovlar, xavf-xatar va tahdidlar, oldindan bashorat qilib bo'lmaydigan tahlikalarni inobatga olgan holda, har bir ishda, qabul qilinayotgan barcha qonun va qarorlarda faqat va faqat xalqimiz, Vatanimiz manfaatini nazarda tutishi shartligi nazarda tutiladi.

O'zbekistonning ijtimoiy davlat deb belgilanishi ta'lim, sog'liqni saqlash, ijtimoiy xizmatlar va jamiyatdagi ijtimoiy tengsizlikni yumshatish, ayniqsa, ijtimoiy himoyalangan yoki ehtiyojmand qatlami qo'llab-quvvatlash orqali ularga munosib turmush sharoitini yaratishga xizmat qiladi. Bu borada kelgusida yechimini kutayotgan qator masalalar mavjud. Ayni vaqtda mamlakatimizda 2 million 200 mingdan ziyod oila ijtimoiy ko'makka muhtojligi, aholimizning 55 foizi yoshlardan iboratligi inobatga olinsa, masalalar mohiyati yanada ravshanlashadi.

Shu ma'noda, yangi tahrirdagi Konstitutsiyada davlatning ijtimoiy majburiyatlarini ochiq ravishda ko'rsatish, ijro hokimiyati tizimidagi tub islohotlar yoki Konstitutsiyamizga viloyat, tuman, shahar hokimi lavozimini egallab turgan shaxs bir vaqtning o'zida xalq deputatlari kengashining raisi lavozimini egallashi mumkin emasligi to'g'risidagi normaning kiritilishi hamda boshqa o'zgarishlar zamon taqozosidir.

Xususan, ta'kidlangan so'nggi norma orqali mahalliy darajada vakillik va ijro etuvchi hokimiyat funksiyasi ajratiladi. Hokimlarning xalq deputatlari kengashlariga boshchilik qilishi haqidagi qoida chiqarilishi, ularning kengashlar oldidagi mas'uliyatini oshirishga, hokimlik faoliyatini ustidan kengash va deputatlar nazoratini kuchaytirishga xizmat qiladi.

Xursand qiladigan yana bir jihat shuki, yalpi ichki mahsulotimiz hajmini hozirgi 80 milliard dollardan yaqin yillarda 160 milliard dollarga yetkazish uchun bor imkoniyatlarni ishga solish, bu orqali aholi jon boshiga yalpi ichki mahsulot hajmini 4 ming dollarga yetkazish kelgusi taraqqiyot uchun qo'yilgan aniq maqsadlardandir.

Bugun yangi O'zbekiston insonparvar va xalqchil bo'lgan huquqiy davlat qurish yo'lida odimlamoqda. Kelgusi yillarda adolat prinsiplari asosida huquqiy davlatni barpo etish borasida amalga oshirilgan sa'y-harakatlar natijasida yangi tahrirdagi Konstitutsiyada ham huquqiy davlat tushunchasi alohida mustahkamlandi. "Qonun — muqaddas, har qanday holatda ham adolatni qaror toptirish sharti!" degan qarash jamiyatning har bir a'zosi, ayniqsa, mansabdorlar uchun hayotiy qoidaga aylanishi kerak degan qat'iy pozitsiya tufayli mamlakatimizning xalqaro miqyosdagi yuridik imiji tobora oshib bormoqda. Shu

Shuningdek, xalq deputatlari kengashlarini hududlarda mavjud muammolarni hal qilishdagi asosiy bo'g'ingga aylantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. "Xalq davlat hokimiyatining birdan-bir manbayidir" prinsipini amalga oshirishga xizmat qiluvchi hokimlik idoralari rahbarlari xalq deputatlari kengashlari oldida hisobot beradigan samarali tizim yo'lga qo'yildi.

Eng muhimi, hokimlarning o'zi qaror qabul qilib, o'zi boshchilik qiladigan kengashlarida ushbu qarorlarni tasdiqlatish, keyinchalik uning ijrosini nazorat qilish kabi amaliyotga chek qo'yildi. Bu orqali kengashlarning faoliyati, avvalo, aholi manfaatlaridan kelib chiqib qarorlar qabul qilishga yo'naltirilsa, hokimning faoliyati esa mazkur qarorlarni ijro qilishga qaratiladi.

Ikkinchidan, yangilangan Konstitutsiyamiz Prezident, parlament, hukumat, vazirlar, hokimlar oldiga kechiktirib bo'lmaydigan yangi siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy vazifalar qo'yimoqda.



bois, Bosh qonunimizda inson huquqlari kafollatlariga oid normalar ham 3 barobar ko'paytirildi. Zotan, "faqat huquqiy davlat sharoitidagina insonning hayoti, erkinligi, sha'ni, qadr-qimmatini to'liq ta'minlash, tom ma'noda xalqparvar boshqaruv tizimini shakllantirish mumkin".

Birinchidan, oxirgi vaqtlarda hokimiyatning barcha bo'g'ini isloh qilinib, ular o'rtasidagi munosabat va muvozanatda jiddiy o'zgarishlar amalga oshmoqda. Bunda Konstitutsiyaga yangi normalar kiritilib, davlat hokimiyatining butun tizimini demokratlashtirishga asos hisoblanuvchi hokimiyatlar bo'linishi tamoyilini izchil amalga oshirish muhim omilga aylandi.

Masalan, Senat a'zolari sonining 100 nafardan 65 nafargacha optimallashtirilishi, ijro hokimiyati tizimidagi tub islohotlar yoki Konstitutsiyamizga viloyat, tuman, shahar hokimi lavozimini egallab turgan shaxs bir vaqtning o'zida xalq deputatlari kengashining raisi lavozimini egallashi mumkin emasligi to'g'risidagi normaning kiritilishi hamda boshqa o'zgarishlar zamon taqozosidir.

Xususan, ta'kidlangan so'nggi norma orqali mahalliy darajada vakillik va ijro etuvchi hokimiyat funksiyasi ajratiladi. Hokimlarning xalq deputatlari kengashlariga boshchilik qilishi haqidagi qoida chiqarilishi, ularning kengashlar oldidagi mas'uliyatini oshirishga, hokimlik faoliyatini ustidan kengash va deputatlar nazoratini kuchaytirishga xizmat qiladi.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiya oliy yuridik kuchga ega ekanidan kelib chiqib, davlat organlari va tashkilotlari, shu jumladan, sud va huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatida to'g'ridan-to'g'ri va so'zsiz qo'llanilishi kabilarni inobatga olgan holda aytish lozimki, mazkur jarayon barcha bo'g'indagi rahbar kadrlardan yangicha yondashuv talab etadi va o'z-o'zidan eskicha ishlash va yashashni inkor etadi.

Mamlakat ijtimoiy hayotining eng muhim jihatlardan biri o'qitish tizimidir. Shu bois, ta'lim va ilm-fan sohasiga hayot-mamot masalasi sifatida e'tibor qaratib kelinmoqda. Aynan 2023-yilga "Insonga e'tibor va sifatlil ta'lim yili" deb nom berilgan, "Ta'lim sifatini oshirish — Yangi O'zbekiston taraqqiyotining yakka-yu yagona to'g'ri yo'li" deb e'tirof etilgan sifatlil ta'lim yurtimizning kelgusi ming yilliklardagi taraqqiyoti uchun strategik ahamiyatga ega ustuvor vazifa bo'lib qolishini anglatadi. O'zbekiston Respublikasining 1992-yil 8-dekabrda qabul qilingan Konstitutsiyasida "ta'lim" so'zi 2-marta qo'llangan bo'lsa, yangi tahrirdagi Bosh qonunimizda 20-marta, ya'ni 10 barobar ko'p ishlatilgan. Unga kiritilgan normalar asosida ham kelgusida o'qitish tizimini bir necha o'n karra kuchaytirish maqsadi muajassam.

Ma'lumotlarga ko'ra, rivojlangan mamlakatlarda ta'limning to'liq sikliga investitsiya yo'naltirish, ya'ni 3 yoshdan 22 yoshgacha bo'lgan davrda bolaning o'qishi



va tarbiyasiga sarmoya kiritishga katta e'tibor beriladi. Vaqti kelib ana shu mablag' jamiyatga 15-17 barobar ko'p foyda keltiradi. O'zbekistonda esa bu ko'rsatkich atigi 4 barobarani tashkil etadi.

So'nggi yillarda mamlakatimizda bu boradagi ishlar tizimli yo'lga qo'yilgan bo'lib, bolalarni maktabga qamrab olish 100 foiz ta'minlangan. Oxirgi olti yilda maktabgacha ta'lim tashkilotlari soni 5 ming 211 tadan 29 mingdan ziyodga yetkazildi. Maktabgacha ta'lim bilan qamrab olish darajasi 27 foizdan 70 foizga yetishi natijasida bugun 2 millionga yaqin bola bog'chaga bormoqda. 2022-yilda "Finance Inquirer" nashri bolalarni maktabgacha ta'lim muassasalariga jalb qilish bo'yicha eng yaxshi dinamikaga ega bo'lgan peshqadam 10 davlatni e'lon qildi. Ular orasida O'zbekiston birinchi o'rinda turibdi.

Ahamiyatli jihati shundaki, kelgusida bolalarni maktabgacha ta'lim bilan qamrab olish darajasi 100 foizga yetkaziladi. Ma'lumot o'rinda ta'kidlash joizki, O'zbekistonda 2022-yilda 932 ming bola tug'ilgan. 2017-yilda bu ko'rsatkich 715 ming edi, ya'ni 4 yilda tug'ilish ko'rsatkichi 30 foizga oshgan. Bu kelgusida mamlakatimizda bog'chalar sonini kamida 30 foiz ko'paytirishimiz kerakligini anglatadi. Hamma sifatlil ta'lim olishga haqli. Bu borada mamlakatimizdagi ta'lim tashkilotlarida alohida ta'lim ehtiyojiga ega bolalar uchun inkluziv ta'lim-tarbiyaga ixtisoslashtirilgan maktablar tashkil etilgan. Sog'lig'ida nuqsoni bo'lgan bolalarni faqat maxsus maktablarda emas, hamma qatori umumiy maktablarda ham o'qitish yo'lga qo'yilgan yangi O'zbekistonda inson qadri tamoyiliga rioya etilayotganidan darak beradi.

Mamlakatimizda yoshlarning oliy ta'lim olishi uchun qulay sharoit yaratildi. Jumladan, OTMlar soni 2,5 barobar ortib, oliy ta'lim bilan qamrov darajasi 9 foizdan 38 foizga oshirildi. Oliy Ma'lumot olish uchun imtiyozli kreditlash tizimi, ayollarga foizsiz kredit ajratish amaliyoti joriy qilindi. 2017-yilga qadar OTMlarda davlat granti o'rnlari soni faqat qisqargan bo'lsa, so'nggi besh yilda, aksincha, grant o'rnlarni ko'paytirish yo'lidan borildi. Xususan, o'tgan davrda oliy ta'limga ajratilgan davlat grantlari soni 75 foiz hamda ehtiyojmand oilalar farzandi bo'lgan xotin-qizlar uchun ikki barobar oshirildi. Nodavlat OTMlarda mutaxassislarni tayyorlashga davlat granti ajratish amaliyoti yo'lga qo'yildi.

Hozirgi barqaror taraqqiyotni saqlab qolgan holda, uni yanada rivojlantirishning aniq strategik reja va dasturlarini ishlab chiqish va hayotga tatbiq etish lozimligini davrning o'zi taqozo etmoqda. Boisi, Konstitutsiyamiz ham bu borada har bir insonning oilasida, mehnat jamoasida ijobiy natija sifatida seziladigan darajadagi o'zgarishlarni amalga oshirishga va'da beradi. Bu vazifalarni sidqidildan va to'laqonli bajarish uchun siyosiy iroda va qat'iyat zarur.

Konstitutsiyaviy islohotlar davrida xalqimizga qaysidir ma'noda ko'pdan-ko'p va'dalar berildi. Endi esa bularni ro'yogba

chiqarish vaqti keldi. Agar raqamlarga e'tibor qaratsa, Asosiy qonunning 65 foizi yangilangan holda, aholi salomatligini asrash bilan bog'liq normalar 4 barobar, ta'lim va ilm-fanga oid normalar qariyb 2 barobar, inson huquqlariga oid normalar 3 barobardan ziyod oshirilganiga guvoh bo'lamiz. Shuningdek, Qonunchilik palatasi vakolatlari 5 tadan 12 taga, Oliy Majlis Senati vakolatlari esa 14 tadan 18 taga yetkazildi. Ayni palla mazkur o'zgarishlarni sifat bosqichiga ko'chirish uchun qulay fursat bo'lib, xalqning davlatga ishonchi ayni vazifalarning samarali bajarilishi bilan belgilanadi. Zotan, Konstitutsiyamizdagi normalarning yarmidan ko'pi inson huquq va erkinliklarini himoya qilishga doir kafolatlarini kuchaytirish hamda mustahkamlashga qaratilgan.

Dunyoda, xususan, mintaqamizda keskin hamda murakkab jarayon hukm surayotgan hozirgi vaziyatda to'g'ri va samarali rivojlanish yo'lini izlab topish va uni amalga oshirish eng o'tkir va dolzarb masalaga aylanmoqda. Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizning muqaddimasida O'zbekistonning jahon hamjamiyati, eng avvalo, qo'shni davlatlar bilan do'stona munosabatlarni hamkorlik, o'zaro qo'llab-quvvatlash, tinchlik va totuvlik asosida mustahkamlash hamda rivojlantirishga intilishi bayon qilingani bu boradagi yo'limiz aniq ekanini tasdiqlaydi.

Odatda mamlakatlarning hududiy yaxlitligi davlat va uning suverenitetining muhim sharti, xalqaro huquqning asosiy prinsiplaridan biridir. Kuch bilan tahdid qilish yoki kuch ishlatish natijasida biror-bir davlat hududi yoki uning bir qismi egallab olinishi tan olinmaydi. Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizning 17-moddasida "davlatlarning hududiy yaxlitligi" O'zbekiston tashqi siyosatining asosiy prinsiplaridan biri sifatida belgilangan.

Mamlakatimiz taraqqiyot bosqichida ochiq, o'zaro hurmat, tenglik va manfaatdorlik, yaxshi qo'shniqlik prinsiplariga asoslangan tashqi siyosat olib bormoqda. Masalan, qardosh Qirg'iziston bilan 30 yillik chegara muammosi yechilgan tufayli vodiydagi 2 milliondan ziyod aholi yaqinlari, qarindosh-urug'lari bilan erkin bordi-keldi qiladigan bo'ldi.

Yurtdoshlarimizning boshqa xalqlar bilan tinch-totuv, do'stona, xavfsiz sharoitda yashashi, xorijiy mamlakatlarda, ayniqsa, qo'shni davlatlarga erkin-erkin borib-kelishi, qon-qarindoshlik rishtalarini mustahkamlashi, mamlakat investitsiya muhitining yaxshilanishi davlat va jamiyat har doim manfaatdor.

O'zbekiston ichki va tashqi siyosatiga doir tahlillar shuni ko'rsatadiki, inson, uning manfaatlari va farovonligi ustuvor vazifalar tizimining ibtidosi bo'ldi. Bu mamlakatdagi barcha islohotlarda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Aynan shunda davlatni modernizatsiya qilish strategiyasining o'ziga xosligi, uni aholi va xorijlik hamkorlar orasida keng qo'llab-quvvatlashda namoyon bo'ldi.



INSON QADRI UCHUN

"Qayering og'risa, joning o'sha yerda", deydi dono xalqimiz. Odamlarning dardu tashvishini yengillatishning savobi ulug'. Namangan viloyati, Mingbuloq tumanida aholiga ko'rsatilayotgan tibbiy xizmat ko'lamini yildan-yilga yangi bosqichga ko'tarilmoqda. Tinimsiz sa'y-harakatlar samarasi o'laroq, tuman tibbiyot birlashmasi tarixida yangi sahifa ochildi. Mamlakatimizning taniqli shifokorlari bilan birgalikda yangi turdagi yuqori texnologik jarrohlik amaliyoti ko'ngildagidek o'tkazildi.

Paxta punktida uzoq yillar samarali mehnat qilib nafaqaga chiqqan Nazlifa Bektemirova pandemiyada davrida o'ziga koronavirus yuqtirgandi. Og'ri xastalik asoratlari boshqa kasalliklarda o'zini namoyon etib boshladi. Keyingi yillarda

NOYOB VA MURAKKAB JARROHLIK AMALIYOTI

tuman tibbiyot birlashmasida muvaffaqiyatli o'tkazildi

tayanch harakat a'zolarida kuzatilayotgan muammo sekin-asta kattalashib, uni qiyin ahvolda solib qo'ydi. Kuzda Respublika nogironligi bo'lgan shaxslarni reabilitatsiya qilish va protezlash milliy markazida o'ng oyog'ida o'tkazilgan total endoprotezlash jarrohlik amaliyotidan so'ng dardi bir oz arigandek bo'ldi. Ammo keyinroq chap oyog'iga ham qattiq og'riq kirdi. Opaning tuman tibbiyot birlashmasiga murojaati tezkorlik bilan ijobiy yechim topdi. TTB boshlig'i Obidjon Qo'ldoshevning tashabbusi bilan Toshkentda olib borilgan jarrohlik

amaliyotining davomi tuman markazi Jomasho'yda bajariladigan bo'ldi. Respublika nogironligi bo'lgan shaxslarni reabilitatsiya qilish va protezlash milliy markazi protezlash bo'limi rahbari, tibbiyot fanlari doktori, mohir ortoped-travmatolog Umarali Xanapiyayev shogirdi Ikromiddin Bozorov bilan Mingbuloqqa keldi. Tajribali shifokorlar bemor holatini chuqur o'rganib, Nazlifa opaning chap oyog'ida ham endoprotezlash amaliyotini o'tkazish zarur, degan fikrga kelishdi. Nozik va murakkab jarrohlik tajribali doktor rahbarligida amalga oshirildi.

Umarali Barotovichga tuman tibbiyot birlashmasi rejali jarrohlik bo'limi mudiri Azimjon Rahimov, shoshilinch tibbiy yordam bo'limi mudiri Muxtorjon Tojiboyev va anesteziolog Mahmudjon Qodirovlar yordamlashib turishdi va amaliyotchi olimdan "mahorat sabog'i"ni o'zlashtirishdi. — Onam koronavirus pandemiyasi paytida ancha dard chekdi. O'shanda oq xalatlil fidoyilarning beminnat xizmatlari tufayli hayoti saqlab qolindi. Bugun yana davolanish uchun yana shifoxonada. Davlatimiz tomonidan yaratilgan keng imkoniyatlar bois,



jonkuyar xalokkorlarning chin ko'magi bilan salomatliklarini qayta tiklash uchun jarrohlik amaliyoti o'tkazildi. Hozir yurtimizda keng quloq yozgan "Inson qadri uchun!" tamoyili asosidagi xayriy muvohirlarining amaldagi isbotiga o'limiz misolida guvoh bo'ldik. Qo'li yengil madadkorlarga ming rahmat, barchangizdan bir umr minnatdormiz va duodamiz, — deydi onaxonning qizi Shahnoza Bektemirova.

66 yoshli ayolning chap chanoq son bo'g'imida O'zbekistonning nomdor doktorlari va mahalliy shifokorlar hamkorligida amalga oshirilgan yuqori texnologik jarrohlik amaliyoti muvaffaqiyatli uddalandi. Endi Nazlifa opaning sog'ayib, tez orada shahdam qadam tashlashiga shubha yo'q.

Abdulla G'OZIYEV, jurnalist

Tilsimlarga to'la tarixiy maskan

ZIYORAT TURIZMI

Qishloq bo'ylab sayr qilar ekanmiz, uning asosiy yodgorligi — Hazrati Langar maqbarasiga yo'l oldik. Bu yerda oralig'i chamas 200 metr bo'lgan ikkita qadimiy maqbara joylashgan bo'lib, taxminan XVI-XVII asrlarda bunyod etilgani aytiladi.

Mamlakatimiz hududida madaniy va tabiiy yodgorliklar bisyor. Turli davrlarda bunyod etilgan, ne-ne suronli davrlar shohidi bo'lgan, har biri moziyning bir parchasi sifatida saqlanib qolgan madrasa, maqbara, masjid, xonaqoh va ziyoratgohlar tariximizning tilsiz tilsimlaridir.

Birgina Qashqadaryo viloyatida 900 dan ortiq madaniy meros obyekti mavjud. Ularning 160 dan ortig'i arxitektura inshooti, 683 tasi arxeologik yodgorliklar, 61 tasi qadimiy san'at asarlari, 20 dan ziyodi esa ziyoratgohlardan iborat. Shulardan biri Hazrati Langar ota ziyoratgohidir.

Tarixiy manbalarga ko'ra, ushbu ziyoratgoh joylashgan Hazrati Langar ota qishlog'ining tarixi zardushtiylar davriga borib taqaladi. Hudduda bir muddat sayohat qilsangiz, moziyning bizgacha saqlanib qolgan ko'pgina mo'jizalariga guvoh bo'lasiz. Qishloqning har bir qarich yeri o'zida ilk neandertal davridagi hayotdan boshlab, zardushtiylar, so'ngra islom dini tarixini ham aks ettiradi.

Ayni paytda Qashqadaryo vohasida ikkita Langar ota qishlog'i bor. Qamashidagi Katta Langar, Chiroqchi tumandagisi esa eski Hazrati Langar deb ataladi. Biz so'z yuritayotgan bu manzil, qo'shni Samarqand viloyati bilan chegaradosh Hisor va Zarafshon tog'larining birlashgan nuqtasi — Hazrati Bashir tog'laridan Jom qishlog'iga qadar cho'zilgan Qoratepa, Chaqilikalon tog' tizmalari o'rtasidagi Qalqama vohasining markazida joylashgan. Nomi tarixchi va toponomik olimlarning fikriga ko'ra, bu yerga shayxlarning kelishi va langar tashlashi degan ma'noni anglatadi. Ya'ni Hazrati Langar qishlog'i ham o'rtada joylashgan bo'lib, har tomonida 7 tadan qishloq mavjud. Langar so'zining yana bir ma'nosi — langar cho'p yoki muvozanat nuqtasi, o'rtaliq qishloq ma'nosiga ham ega.

Qadimshunos olim, akademik Rustam Sulaymonovning ma'lumotlariga ko'ra, Hazrati Langar qishlog'ida odamzod besh ming yildan buyon yashab keladi. Qishloqdagi Gedalisoydan topilgan ba'zi arxeologik topilmalar — bronzadan yasalgan dudama xanjar, kamon o'qi, qoratoshli qadimiy mozor, ikki dona ossuariy (sopol tobtu) bunga misol bo'la oladi. Dunyo sayohatlarini diqqat-e'tiborini tortgan bu qishloq ayni paytda Xalqaro ekoturizmni

HOZIRGI KOMPYUTER O'YNALARIGA QADIMDA QASHQADARYO HUDUDIDA O'YNALGAN "ARSHI A'LO" ASOS BO'LGANMI?

ham o'ziga jalb etmoqda. Bu manzilda qadim o'tmishdan bizgacha yetib kelgan ziyoratgohlar, tarixiy obidalar, sir-u sinoatga to'la tabiat yodgorliklari, qoyatoshlardagi surat-yozuvlar, Konizor g'oridagi ibtidoiy odam makonlari, tosh haykatchalar, ming yillik ulkan chinor, mangu oqib yotadigan ma'danli buloqlar o'xshashi yo'q. Mahalliy aholining aytishicha, o'tmishda ushbu manzil shu yaqin atrof aholisi uchun sho'rolar davriga qadar ilm tarqatuvchi maskan hisoblangan. Xususan, o'tgan asrgacha qishloqda o'sha davrning oliy ma'lumotini beruvchi madrasa faoliyat olib borgan. Unda diniy bilimlar bilan birgalikda dunyoviy ilmdan ham saboq berilgan. Talabalar bo'sh paytlari shaxmatga o'xshash "Arshi a'lo" o'yini o'ynashgani aytiladi. O'yinning taxtasi va qoidalari yozilgan qog'oz qishloq uylaridan birida topilgan bo'lib, hozirgacha saqlab kelinadi.

Unda 30 tagacha odam qatnashishi mumkin. O'yin tartibi ham o'zgacha: Xudoning dargohiga "o'yinchi" qay yo'l bilan chiqishi belgilanadi. Har bir katakda odamlarning gunohlari "yozilgan". Toshlar tashlanganda qaysi katakka tushsa, uning gunohi aniqlanadi va tashdagi songa qarab ilgari suriladi. Yo'lda mayda ilonlar uchrab, oxirida ikkita ajdarho o'yinchini kutib turadi. Uning og'ziga tushsangiz yutib yuboradi va o'yin yana ajdarho dumidan boshlanadi. O'tradagi narvonlarga to'g'ri kelinsa, yuqori pog'onaga chiqiladi. Ya'ni hozirgi kompyuter o'yinlarining asosida aynan ana shu o'yin yotgan bo'lsa ajabmas.

Aytishlaricha, madrasaning o'ziga xos kattagina kutubxonasi mavjud bo'lgan. Afsuski, sho'rolar davrida qishloq faollari kitoblarni asrash maqsadida yarim tunda qabristonga olib borib ko'mishgan. Lekin ancha vaqtgacha hech bir kishi bu kitoblar haqida bir og'iz ham gapira olmagan. Ma'lum vaqt o'tgach esa, kitoblarning aynan qaysi joyda ko'milganini biluvchi odamlar vafot etgani sababli hanuzgacha ular topilmagan.

Bugungi kunda esa qishloq faollaridan biri odamlar uyida saqlanib qolgan kitoblarni asrash maqsadida farzandlari bilan ikki xonadan iborat mo'jizaga bino qurib, uni Langar ota qishlog'ining tarixiy muzeyiga aylantirgan. Muzey asta-sekinlik bilan bo'lsa-da, shu yerdan topilgan, zardushtiylar tobtu hisoblanmish 2 dona ossuariy, kitoblar, qadimgi maishiy buyumlar bilan boyitilayotganini ko'rish mumkin.

Qishloq bo'ylab sayr qilar ekanmiz, uning asosiy yodgorligi — Hazrati Langar maqbarasiga yo'l oldik. Bu yerda oralig'i chamas 200 metr bo'lgan ikkita qadimiy maqbara joylashgan bo'lib, taxminan XVI-XVII asrlarda bunyod etilgani aytiladi.



Xonaqohlarning ko'rinishi bir xil, ammo hajm jihatdan biri kattaroq, ikkinchisi kichikroq. Ikkalasi ham dengiz sathidan 700 metr yuqorida joylashgan. Bizga ma'lum qilinishicha, maqbaralarda o'z davrida islom dini peshvolari bo'lgan shayxlar dafn etilgan. Aqidaga ko'ra, Langar ota shayxlari poyiga ko'milgan inson do'zax o'tidan xalos bo'lgan. Shu sabab, ilgari bu yerga hatto Afg'onistondan ham odamlar olib kelib, dafn etilgan ekan.

Keyingi paytda bu yerdagi qabr toshlar olimlar tomonidan o'rganilib, ayni paytda xaritasi tuzilgan. Hozir maqbaralar ziyoratgohga aylantirilgan.

Qishloq o'rtasidan oqib o'tuvchi daryo tomon enar ekanmiz, soy bo'yida joylashgan masjid e'tiborimizni tortdi. Masjid ustunlarining birida bu bino hijriy 122-yili bunyod etilgani haqida qayd etilgan, ya'ni bundan 800 yil ilgari qurilgan. Hanuz aholiga xizmat qilib kelayotgan masjid ustunlari chinor va archa daraxtidan yasaliib, yuqori qismi naqshlar bilan bezatilgan. Masjid shiftda har biri o'z ma'nosiga ega bo'lgan rangdor naqshlar yorqinligini saqlab qolgan. Shuncha davrlar o'tsa ham o'z ko'rinishini yo'qotmagan bu naqshlar ustasiga tasanno aytmadan ilojingiz yo'q. Unda ishlatilgan bo'yoq qanday tayyorlangani esa hamon sir.

Tadqiqotlarga ko'ra, masjid dastlab qishloq tepasidagi Oqmachit guzarida qurilgan ekan va bundan 8 asr ilgari mana

shu joyga ko'chirilgan, — deydi shu qishloqlik Muzrof ota Sayfiddinov.

— Ustundagi yozuv ham ilk masjid qurilgan vaqtdan darak beradi. Bu joyga ko'chirilganda ustunlari ham to'liq olib tushirilgan. Taxminimcha, yuqorida suv biroz muammo bo'lgani bois, shu yerga, ya'ni daryo yaqinida bunyod etilgan. Sho'rolar davrida masjid yopilib, omborxonaga aylantirildi. Gohida o'g'it saqlangan bo'lsa, gohida xo'shlikning qoramol teri yig'adigan joyiga aylandi. Shukrki, mustaqillik unga o'z mohiyatini qaytardi.

E'tibor bersangiz, shiftdagi naqshlarning aksariyati svastika ko'rinishida, asosan, bumerang — abadiy hayot tasviri aks ettirilgan. Shiftda naqshlar asosan matoga chizib, yopishtirilgan. Shuning uchun ham asrlar davomida ustidan suv o'tsa ham naqshlar o'chmagan. Har bir naqsh alohida ma'no kasb etadi. Ular inson hayotining mazmunini o'zida aks ettirgan. Mutaxassislar fikriga ko'ra, ushbu masjid tarixiyligi va o'ziga xos ko'rinishi bilan Markaziy Osiyoda betakroridir.

Masjid hozirda Abulhasan Ishqiy nomi bilan ataladi. Manbalarga ko'ra, Abulhasan Ishqiy tasavvuf ilmining ishqiy tariqatchilaridan bo'lib, ushbu masjid bunyod etilishida o'zi bosh bo'lgan. Bundan tashqari, shu hududda diniy va dunyoviy ilm rivojlanishida katta xizmat ko'rsatgan kishilardan biri bo'lgan. Xususan, Alisher Navoiy "Nasoyim ul-muhabbat" asarida 770 nafar mashohiy haqida ma'lumot keltirib, unda xususan,

shunday yozadi: "Shayx Abulhasan Ishqiy (sirlari muqaddas bo'lsin) Xorazmdandur. Shayx Boyazid Ishqiy Quddusi sirrihum silsilasi sulton ul-orifin Boyazid Bistomiya yetar, anga tarbiyat qilgandir. O'z zamonida faqir ahlining muqtadosi erish, balki mashohiyning peshvosi. Murid va as'ho'bi ko'p, karomat va maqomat andin ko'proq".

Ayni paytda masjid biroz ta'mirga muhtojligi ko'rinib turibdi. Shuncha asrlar o'tsa ham asiyatini yo'qotmagan mazkur tarixiy obida ayni shu davrga kelib, nurab ketishidan mahalliy aholi ham xavotirda. Lekin viloyat hokimligi mutasaddilarining bizga taqdim etgan ma'lumotlariga ko'ra, joriy yilda ushbu masjid restavratsiya qilinishi uchun davlat dasturiga kiritilishi borasida taklif berilgan.

Mahalliy aholining taklifi bilan soy bo'yida joylashgan hovli devori yonidagi katta toshga 40 ta katak o'yilgan joy tomon bordik. Tosh yonida oyoq qo'yadigan joy ham bor. Oqsoqollarning aytishicha, bu qadimgi qirchovut o'yinining "taxtasi" bo'lib, u zardushtiylar davrida o'yab topilgan. Bunday o'yinlar asosan, suv tegirmonlar oldida tashkil etilib, odamlar navbat kutganida qirchovut o'yinab, vaqt o'tkazgan. Bu, asosan, tekis tosh ustiga o'yib, qirqa katakcha qilingan va ikki raqib o'z toshlari bilan bir-biriga qarshi harakat olib borgan. Hozirgacha daryo bo'ylarida qirchovut o'yinlari saqlanib qolgan. Lekin uning qanday o'yinlari haqida hech bir manbada yozib qoldirilgan ma'lumot yo'q.

Qishloqda nafaqat madaniy meros obyektlari, balki tabiat yodgorliklari ham ko'pligi ziyoratchilarni o'ziga jalb etib kelmoqda. Shulardan biri Sulton Vois bobo ekan va hozirda yoshi ming yildan oshgan chinordir. Yung'oqli soy etagida bo'y cho'zgan bu ulkan daraxt, aytishlaricha, bir marta yonib ketgach, o'midan yana ikkita chinor o'sib chiqqan. Rivoyatlarga ko'ra, Sulton Vois boboning volidalari boboning yoshligida qo'lga kosov berib, "o'choqni kovla" desa, u yerga suqib xudoga nola qilgach, kosov ko'rgan ekan. Qishloq chetidagi "Xukak", ya'ni "Haqiqat toshi" nomini olgan teshik toshning tarixi ham Sulton Vois bobo bilan bog'liq. U yurgan yo'lida "xu xaq" deb xitob qilgani bois, uning har bir so'zi toshlarda aks sado bergan. Keyinchalik bu tosh "Xukak" deb atalgan.

— "Haqiqat toshi"dan har kim ham o'ta olmaydi, — deydi Muzrof ota. — Kimning gunohi bo'lsa tosh qisib qoladi, deyiladi rivoyatlarda. Ammo ba'zi bir kishilarning shu tosh orasidan o'ta olmaganiga o'zim ham guvoh bo'lganman. Necha asrlar davomida odamlar Yung'oqli soydan tuproq olib, sopol idish va tobtular yasashgan. Chunki uning



tuprogi nihoyatda toza. O'rtada oqayotgan daryoning nomi Langar bo'lib, qadimdan Chashmiob deb atalgan. Chunki Jomdan Samarqandgacha chashma (buloq)lar serob. Daryolar ham boshini chashmadan oladi. Har bir chashmaning suvi shifobaxsh. O'z nomi bilan atalgan Qo'tirbuluq suvidan ichib, unda cho'milgan odam bir necha darddan xalos bo'ladi. Ko'rinib turgan Hisor cho'qqisida g'or bor. Uning atrofidagi archalar saqlanib qolgan. Aytishlaricha, ilgari archalar tog' etagigacha o'sgan, keyin esa odamlar tomonidan ularning ayovsiz kesib tashlanishi natijasida tog' yonbag'irlari yaleng'ochlanib qolgan. Afsuski, tabiatga ayovsizlaracha munosabat yaqin-yaqin gacha davom etdi. Mana, endi muhofazaga olinib, yana daraxtlar bo'y ko'rsatishiga zamin yaratilmoqda. Tog'imizda, shuningdek, tug'dona nomini olgan daraxtlar o'sadi. Ammo ular ham juda kam qolgan. Bu yerda bahorda ochiladigan tog' lolasi ikki oy gacha suvda yashnab turadi. Qishloqni Chaqilikalon tizmasi o'rab turadi, ikkala tomonidan quyosh birday o'tadi. Tog'ning eng baland joyi dengiz sathidan 2200 metr yuqori. O'ziga xos xususiyati shundaki, bu yerda dorivor o'simliklarning 100 dan ortiq turi o'sadi.

Qishloqning shimoliy qismiga qarab yo'l olamiz. Yalang'och qir bag'ri o'rtasida todalangan ulkan toshlar e'tiborimizni o'ziga tortdi. Eng katta toshga ibtidoiy odamlarning ov jarayoni surati o'yib tushirilgan. Bu tosh mahalliy aholi tomonidan Qo'chqortosh deb atalarkan.

Langar ota qishlog'ining hali ochilmagan sirlari ko'p. Uning betakror tabiati, tarixiy, tabiiy va madaniy yodgorliklari borasida o'rganishlar olib borish lozim.

Xullas, bugun mahalliy va xorijiy sayohatlar qadami uzilmayotgan bu maskan haqida ming bora eshitgandan ko'ra, bir bora ko'rgan afzal deganlaridek, bir tashrif buyursangiz, sarflagan vaqtingizga hech ham achinmaymiz.

Akbar RAHMONOV, "Yangi O'zbekiston" muxbiri

XOTIRA — UYG'ONSA GO'ZAL

Jurnalistni boshqalardan ajratib turadigan eng muhim jihat — yon-atrofida bo'layotgan voqea-hodisalarga befarq qaray olmasligi. Haqiqiy jurnalist odamlar kundan-kunora ko'raverib odatlanib qolgan va e'tiborsiz bo'lgan muammolarni zukkolik bilan ilg'aydi. Shuningdek, har bir kundalik voqea-hodisaga munosabat bildira oladi. Sohada fidoyilik bilan mehnat qilayotgan, axborot tarqatish va uni tahlil qilish bilan shug'ullanayotgan jurnalist borki, Vatani ozod va obod, xalqi hayotini farovon, o'zi mansub jamiyatni benuqson ko'rgisi keladi.

Ana shunday fidoyilardan biri O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan jurnalist, davlat va jamoat arbobi Safar Ostono'v edi.

O'zbekiston yozuvchilar uyushmasida ustoz ijodkorning "Umid bilan yashagin" kitobi taqdimoti bo'lib o'tdi. Afsuski, bu kungacha Safar akaning o'zi yetib kela olmadi.

— 73 yil yashab, salkam ellik yillik zahmatli hayotini jurnalistikaga bag'ishlab,

“UMID BILAN YASHAGIN” Bu Safar Ostoning hayot a'moli edi



umrining so'nggi nafasiga qadar qo'lidan qog'oz-qalam tushmagan ustozimiz Safar Ostono'vning ushbu kitobi nihoyat dunyo yuzini ko'rdi, — deydi O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan jurnalist Norqobil Jalil. — Bilmayman, ustoz bu kitobi uchun materiallarni qachondan beri to'plagan,

kimlarga maslahat solgan. Lekin bir haqiqat ayonki, Safar aka keyingi 25-30 yil ichida har kuni sarg'ayib ketgan bu qo'lyozmalar, bloknot-u gazeta taxlamlarini necha marta varaqlab, ko'zdan kechirib o'tirganiga guvohman. Kitobning "Umid bilan yashagin" deb nomlanishi ham bejiz emas. Sababi,

Safar Ostoning hayot a'moli, shiori aslida umid bilan yashamoq edi! Umid uning topinguvchi bayrog'i edi.

S.Ostono'v mamlakatimiz mustaqilligini mustahkamlash, keng ko'lami islohotlar ma'no-mazmunini jamoatchilikka yetkazish, milliy qadriyatlarini targ'ib etish, axborot sohasidagi siyosatni amalga oshirish ishlariga munosib hissa qo'sha olgan ijodkorlardan edi. Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati sifatida faoliyat yuritgan davrida qonun ijodkorligi sohasida boy bilim va tajribasini yorqin namoyon etdi. So'nggi yillarda xalq bilan bevosita muloqot qilish asosida jamiyatimiz hayotini yanada demokrattashtirish va erkinlashtirish, ommaviy axborot vositalarini har tomonlama rivojlantirish borasidagi tashabbuslarni amalga oshirishda, ayniqsa, jonbozlik ko'rsatdi.

Mahoratlari jurnalist Safar Ostono'v ijtimoiy hayotdagi ko'plab dolzarb va keskin muammolarni dadil ko'tarib, ularni xolis va haqqoniy yoritadigan, faol fuqarolik pozitsiyasi, vatanparvarligi bilan keng jamoatchilik o'rtasida munosib obro'-e'tibor qozongan o'tkir qalam

sahibi edi. O'nlab iste'dodli yoshlarga jurnalistika sohasi sir-asrorlarini o'rgatib, salohiyatini yuzaga chiqarishi uchun o'zini ayamasdan, beg'araz xizmat qiladigan mehribon va talabchan ustoz sifatida tanilgani.

— Tajribali muharrir Safar Ostono'v qalam tebratmagan mavzuning o'zi yo'q edi, — deydi O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan jurnalist Jabbor Razzoqov. — U qaysi sohada yozmasin, voqea-hodisa tafsilotlarini chuqur o'rganib, fikrini jamlagan holda yozuv stoliga o'tirar, charchash nimaligini bilmas edi. Sud-huquq mavzusida maqola yozadigan publitsistlar respublikamizda sanoliq bo'lgan. Bu borada Safar yetakchilardan biri edi.

Tadbirda Safar Ostono'vni yaqindan bilgan-tanigan do'stlari, hamkasblari, shogirdlari so'zga chiqib, turli yillarda yozilgan dolzarb mavzudagi maqolalar, ocherklar va ijodkor haqida hamkasblari bitgan xotiralardan jam bo'lgan kitob hamda uning muallifi haqida so'zladilar.

— Ustoz bir umr e'tiqodiga sodiq qoldi, — deydi tanilqi jurnalist Ro'ziyoy Qo'ldoshev. — U xalqi, millati va vatani Safar Ostonga xos muhabbat bilan sevar va qadrlar edi. Shuning uchun bugun uning kitobi taqdimotida so'zga chiqqanlar, asosan, jurnalistning ana shu betakror fazilatlarini urg'uladilar.

Nodir MAHMUDO'V, "Yangi O'zbekiston" muxbiri

"Yangi O'zbekiston" va "Правда Востока" gazetalarini tahririyati" DUK
MUASSIS:
O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi

Bosh muharrir:
Salim DONIYOROV

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqrib qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahifalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatlari chop etilishiga "SHARQ" NMAK mas'ul.
Bosmaxona telefoni: (71) 233-11-07

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro'yxatga olingan.
Nashr indeksi — 236. Buyurtma G-646.
41011 nusxada bosildi.
Hajmi — 3 ta boq. Ofset usulida bosilgan. Qog'oz bichimi A2. Bahosi kelishilgan narxda.

Navbatchi muharrir: Muxtasar Tojimatova
Dizayner: Zafar Ro'ziyev

Manzillimiz: 100029, Toshkent shahri, Matbuotchilar ko'chasi, 32-uy